

**Alifshar QODIROV:**  
**«FRAKSIYANING HAR BIR YIG'ILISHI YOSHLAR PARLAMENTI UCHUN KATTA MAKTAB»**  
 3-sahifa

**MILLIY KONTENTDAN MAS'ULIYAT CHEGARASIGACHA**  
 3s

**Alifsharning ONASI**  
 5-sahifa

# milliy tiklanish



QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT

№ 4 (1226) 2024-yil 7-fevral, chorakba Adabi - 5 036



**«TA'LIM, SOG'LIQNI SAQLASH, MADANIYAT VA SPORT: ENDIGI XATOLAR QIMMATGA TUSHADI»**

## ENDIGI XATOLAR QIMMATGA TUSHADI

**5** -fevral kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tgan videosektor yig'ilishida bildirilgan mulohazalar ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohalarini talab darajasida rivojlantirishdan turib kutilgan natijalarga erishib bo'lmavligini ko'rsatdi.

Yig'ilishda qayd etilganidek, keyingi yetti yilda maktabgacha ta'lim qamrovi 27 foizdan 74 foizga yetdi. Yangi maktablar qurilib, qo'shimcha 700 ming o'quvchi o'rni yaratildi. Mutaxassislar tomonidan e'tirof etilayotgan Prezident maktablari tashkil etilganidan tashqari joylarda ixtisoslashtirilgan maktablar soni ham ko'paydi. Oliy o'quv yurtlari soni esa 200 tadan oshib, qamrov darajasi 42 foizga yetdi. Ta'lim va tibbiyotda xususiy sektorga keng yo'l ochildi. Ammo ana shunday natijalarga qaramay,

hali ham ushbu sohalarida aholi bilan ishlash, standartlarni yangilash va raqamlashtirish borasida kamchiliklar uchramoqda. Yig'ilishda shu kabi muammolar tahlil qilinib, joriy yildagi vazifalar belgilab olindi. Ta'kidlandiki, eng avvalo, barcha maktabgacha ta'lim muassasalarini milliy qadriyatlarimizga mos o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash, oziq-ovqat ta'minoti, davomat, badal puli kabi jarayonlarni to'liq raqamlashtirish zarur.

Davomi 2-sahifada



## YOSHLAR PARLAMENTI BONG URADIGAN MASALA

Yangi O'zbekiston islohotlarining bosh maqsadi Inson qadrini ulug'lash ekan, bundan 23 yil oldin joriy qilingan va bugun milliy qonunchiligimizdan mustahkam o'rin olgan «Yarashuv instituti» ayni paytda sud-huquq tizimini demokratlashtirish, inson huquqlari va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, nizolarni hal qilishning yangi mexanizmi jamiyatda o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, insonparvarlik tamoyilini kuchaytirishga xizmat qilyapti. Ma'lumki, oilaviy kelishmovchiliklar, jumladan, er-xotin, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shni, tanish-bilishlar, mahalla-ko'y o'rtasida o'zaro kelishmovchilik hayotda tez-tez uchraydigan holatlardir. Ammo bu jarayonda yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar qoplash ham yoxud tomonlar sodir etgan qilmishidan pushaymon bo'lib, bir-biri bilan yarashsa ham ular ma'muriy javobgarlikdan ozod qilinmas edi. Tabiiyki, bu yaqin insonlar o'rtasida adovatning yanada kuchayishiga, sovuqchilikning keskinlashuviga sabab bo'lardi. Hayot sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan bu amaliyot ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi ishlarda yanada keng qo'llanila boshladi. 2021-yil 4-oktyabrda «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqidagi» qonun bunga huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

Davomi 3-sahifada

## MAKTABGACHA TA'LIM – ENG USTUVOR YO'NALISH



2s

«MILLIY TIKLANISH»



ANONSLAR

## YUZSIZLIK YOKI ALIMENT TO'LAYOTGAN ONALAR HAQIDA ESHITGANMISIZ?



6s

» IS GAZIDAN OGOH BO'LING!  
 4-sahifa

» BAKALAVRIAT BO'YICHA 3 YILLIK TA'LIM DASTURLARI ASOSIDA KADRLAR TAYYORLANADI

Joriy yil 2-fevralda «Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Prezident qarori qabul qilindi.  
 6-sahifa

## QUR'ONI KARIMNI qanday tushunmoq kerak? 4s



BEHBUDIY ORZUIDAN CHO'LPONNING IZTIROBIGACHA  
 7-sahifa

## YANA HAYRATLAR OLAMIGA SAYR 7s

## QAYTMAS JAMOANING

NAVBATDAGI LOYIHASI HAM MUVAFFAQIYATLI YAKUNLANDI 6s

## QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING 2022-YIL

# 12

-dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi» qarori bilan Yoshlar parlamenti faoliyati tubdan takomillashtirildi. Mazkur qaror asosida a'zolari saylash tartibi o'zgardi va a'zolar soni Qonunchilik palatasi deputatlari soniga mutanosib ravishda 250 dan 150 nafarga o'zgartirildi.

3-sahifa



## TA'LIM, TIBBIYOT, MADANIYAT VA SPORT:

ENDIGI  
KATOLAR QIMMATGA TUSHADI

(Boshlanishi 1-sahifada)

**B**og'cha mudirialigiga nomzodlarni saralash va lavozimga tayinlash, tarbiyachilar malakasini oshirish masalalari ham nihoyatda muhimdir. Ta'lim sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar ko'pligi bois o'tgan haftada Loyiha ofisi tashkil qilindi va unga katta ilmiy-amaliy tajribasi bor mutaxassislar jalb etildi. Endi mazkur ofis Ta'limni rivojlantirish ilmiy-metodik markazi bilan birgalikda maktablarda matematika, fizika, kimyo, biologiya va xorijiy tillar bo'yicha o'quv reja va dasturlarini xalqaro standartlar asosida yangilaydi. O'quvchi va muallimlar bilimni baholashda xalqaro tajribalar (PISA, TIMSS, PIRLS) bosqichma-bosqich joriy etiladi. Prezident maktablarining ta'lim dasturlari yana 1 mingta maktabda qo'llanadigan bo'ldi. Ularning moddiy-texnik bazasi esa shunga muvofiq yaxshilanadi. Maktablarga «til egalari»ni olib kelish amaliyoti ham kengaytiriladi. Yoshlar maktab davridayoq, hech bo'lmasa, bitta hunarni egallab, katta hayotga qadam qo'yishlari kerak. Shu maqsadda 50 ta kasb-hunar dargohi tanlab olinib, ular bo'yicha o'quv va amaliyot dasturlari ishlab chiqiladi. Maktablarda ustaxonalar, tadbirkorlar va mutaxassislarni jalb qilgan holda to'garaklar tashkil etiladi, «Kasbiy ta'lim ustasi» lavozimi joriy etiladi. Maktabdagi bo'sh joylar tadbirkorlarga o'quvchilarni kasb-hunarga o'qitish uchun tekin foydalanishga beriladi. O'quv kursini tamomlab, imtihondan o'tgan o'g'il-qizlarga esa malaka sertifikatini beriladi.



Yig'ilishda Davlatimiz rahbari maktablardagi tarbiya va ma'naviyat masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ularni «huquqbuzarlikka qarshi immunitet» hosil qilish zarurligi ham bejizga ta'kidlanmadi. Maktablardagi 2 mingta inspektor-psixolog shtati esa Ichki ishlar vazirligidan Milliy gvardiya tizimiga o'tkazilishi belgilab qo'yildi. Shuningdek, yig'ilishda darslardagi davomatga, tarbiyasi og'ir o'quvchilarga

mos emasligi ham ko'rsatib o'tildi. Ish beruvchilarda katta ehtiyoj, talabalarda salohiyat va xohish bor. Lekin ularni bog'laydigan uzviy tizim yaratilmagan. Shu bois, endi Kasbiy bilim va malakalarni rivojlantirish respublika kengashi hamda Mehnat tadqiqotlari instituti

davomida yetarli «kredit» to'plagan o'quvchilar «2+2» yoki «2+3» dasturlari asosida oliygohlarning ikkinchi yoki uchinchi kurslarida ta'limni davom ettirish imkoniga ega bo'lalilar.

Kollej-texnikumda o'qib, faoliyatini ishlab chiqarishda davom ettirmoqchi bo'lganlarning sohadagi mavqeyini oshirish bo'yicha ham yangi tizim yo'lga qo'yiladi. Endi kollej-texnikumda «ishchi kasb» yo'nalishida o'qiganlar ikki yoki uch yil ishlab, tajriba orttirganidan keyin, imtihon topshirib, bakalavrga teng malaka darajasini olishlari mumkin bo'ladi.

Mutasaddilarga xorijiy tajriba asosida oliyog'oh, texnikum va kollejni bir-biriga bog'lash sharti va tartibini ishlab chiqish ham topshirildi. Oliy ta'lim muassasalariga maqom berishning aniq mezonlarini belgilash, bakalavr yo'nalishlarini maqbulashtirish, ta'lim dasturlarini dunyodagi 300 ta eng yaxshi oliyog'oh

**MAMLAKATIMIZDA FARMATSEVTIKA BOZORI HAJMI 2 MILLIARD DOLLARGA YETDI. LEKIN, BU BOZORDA MAHALLIY MAHSULOTLAR ULUSHI FIZIK HAJMDA 40-45 FOIZ BO'LSA-DA, PUL QIYMATIDA 20 FOIZDAN OSHMAYDI. ODDIY QILIB AYTGANDA, O'ZIMIZDA ISHLAB CHIQRISH BINT, SPIRT, SHPRITS, ANALGIN VA SITRAMONDAN NARIGA O'TMAYAPTI. DORILARNI YASHIRIN AYLANMASI BO'YICHA YETARLI CHORALAR KO'RILMAYAPTI.**

Aholi hayotida katta o'rin tutadigan sohalardan biri bu sog'liqni saqlash sohasidir. Yig'ilishda bu boradagi dolzarb masalalarga ham alohida e'tibor qaratildi. Birlamchi tibbiyot tizimida sifat va mutaxassislar yetishmasligi qayd etilgan ekan, Sog'liqni saqlash vazirligiga sohadagi barcha vakansiyalarni onlayn

Buning natijasida shifokor va hamshiralarni yangicha tartibda o'qitiladi, davolash sifati oshadi, dori yozish kamayadi, eng muhimi O'zbekistonga rivojlangan klinikalar muhiti kirib keladi.

So'nggi ikki yilda tibbiyot sohasini raqamlashtirishga byudjetdan 90 milliard so'm yo'naltirildi. Buning natijasida aholiga ko'plab qulayliklar yaratildi. Endi «Elektron poliklinika», «Elektron shifoxona» va «Elektron tibbiy karta» tizimlari ishga tushirildi. Kafolatlangan paketga kirgan dorilarni elektron retsept asosida berish yo'lga qo'yiladi. Viloyat shifoxonalari ham elektron yo'llanma tizimiga ulanadi.

Davlatimiz rahbari har bir ona va bola o'limga «favqulodda holat», deb qarash kerakligini aytdi. Tug'ruqxonalarni zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, homilador va tug'ruq yoshidagi ayollar salomatligini mustahkamlash, doya va hamshiralarni qo'shimcha o'qitish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda madaniyat sohasida ham avval belgilangan vazifalar ijrosi tahlil qilindi. Har bir tumanda kinozali, kutubxonasi va to'garak xonalari bo'lgan madaniyat markazlari barpo etish, hududlarda madaniy tadbirlar o'tkazish va yoshlarni san'atga jalb qilish masalalari ko'rsatib o'tildi.

Shuningdek, mahallalarni ommaviy sport turidan biriga ixtisoslashtirish, hududlar va respublika miqyosida musobaqalar tashkil etish bo'yicha vazifalar qo'yildi.

Shu yil Parijda bo'lib o'tadigan yozgi Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik masalalari ham ko'rib chiqildi. Sportchilarning yo'llanmalarni qo'lga kiritishi va musobaqalarga yaxshi tayyorgarlik ko'rishi uchun barcha sharoitlar yaratilishi aytiladi. Ularni chuqurlashtirgan tibbiy ko'rikdan o'tkazish, farmakologiya va diyetologiya jihatidan sifatli ta'minlash muhimligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilarning axboroti eshitildi.

O'ZA materiallari asosida  
Odilbek RAHMONOV  
tayyorladi

**MAQSADIMIZ - MAKTAB BITIRUVCHISI HECH BO'LMAGANDA BITTA KASBNI EGALLAB KATTA HAYOTGA QADAM QO'YSIN. MAKTABLARDA OG'RIQLI MASALALARDAN BIRI, BU - TARBIYA VA MA'NAVIYAT. O'TGAN YILI VOYAGA YETMAGANLAR 3,5 MINGTA JINYOYAT SODIR ETGAN. SHUNDAN 2 MING 280 NAFARI MAKTAB O'QUVCHILARI EDI.**

alohida e'tibor qaratish lozimligiga urg'u berildi. Ota-onalar va mahalla raislarining bu boradagi mas'uliyati ham oshiriladigan bo'ldi. Ya'ni, «Maktab - ota-ona - mahalla» zanjiri asosida elektron muloqot platformasi ishga tushirildi.

Yoshlar o'rtasida ommalashgan ijtimoiy tarmoqlar tahlil qilinib, ularning zararli ta'siridan himoyalash va ijobiy tomonidan foydalanish choralari ko'riladi. Shuningdek, ota-onalar uchun farzand ta'lim-tarbiyasi bo'yicha xalqchil tilda qo'llanmalar tayyorlanadi.

- Bu tashabbuslar yo'lga qo'yilsa, maktab ta'limi bo'yicha ota-onada mas'uliyat, o'qituvchida majburiyat, o'quvchida ishonch, ta'lim va tarbiyada sifat, mahallada esa nazorat bo'ladi, - dedi Prezident.

Professional va oliy ta'limdagi ayrim yo'nalishlar hozirgi mehnat bozoriga, texnologik yangilanishlarga

ta'lim sohasidagi Loyiha ofisiga birlashtirildi.

Talab yuqori bo'lgan 100 ta kasb standartlari Germaniya, Shveysariya va Buyuk Britaniya tajribasi asosida yangilanadi. Bunda malaka talabi ish beruvchi ehtiyojiga moslashadi. Professional ta'lim ustozlariga esa yangi standartlar bo'yicha o'qitish talablari qo'yiladi.

Yangi o'quv yilidan boshlab, texnikumlarda o'qitish «akademik» va «ishchi kasb» komponentlarining uzviyiligi ta'minlaydigan yangi tizim asosida yo'lga qo'yiladi. Bunda kollej-texnikumning 1-2 kursidagi ta'lim dasturlari, darsliklar, bilimni baholash mezonlari va muallimlarga talablar oliygohlari bilan bir xil bo'ladi.

Texnikumlarda ham «kredit tizimi» joriy qilinib, fanni o'zlashtirish bo'yicha to'plangan «kreditlar» oliygohlarda tan olinadigan tizimga aylantiriladi. Ya'ni, kollej-texnikumda ikki yil

**UCH YIL AVVAL ONKOLOGIK BEMORLARNI KIMYO VA TARGET TERAPIYASI UCHUN 29 TURDAGI PREPARAT BILAN TA'MINLASH YO'LGA QO'YILGAN EDI. LEKIN, BU DORILAR AYRIM HOLLARDA JOYLARGA O'Z VAQTIDA, TO'LIQ YETKAZIB BERILMAYOTIR. VAHOLANKI, BUNGA BYUDJETDAN YETARLI MABLAG' AJRATILMOQDA. OQIBATDA BA'ZI BEMORLAR ULARNI DORIXONADAN 10 BAROBAR QIMMAT SOTIB OLIISHGA MAJBUR. MANA - FARMATSEVTIKADAGI O'YINLAR!**

dasturi asosida yangilash vazifasi qo'yildi.

Yana bir yangilik: endi «El-yurt umidi» jamg'armasi Prezident Administratsiyasi huzuriga o'tkazilib, xorijda o'qish bo'yicha yangi tizim joriy etilishi belgilab qo'yildi.

platformaga joylashtirib, kadrlarni ishga olish bo'yicha shaffof tizim yaratish vazifasi topshirildi.

Ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, avvalo, qishloqlar aholisiga xizmat qilishi kerakligi ta'kidlandi. Ularni birlamchi bo'g'in bilan bog'lash, ish tizimini raqamlashtirish bo'yicha ham topshiriqlar berildi.

Kasalliklarni erta aniqlash maqsadida endilikda xavf guruhiga kiruvchi aholini yurak qon-tomir, onkologiya va endokrin kasalliklari skriningidan o'tkazish tizimi o'zgartirildi. Buning uchun respublika kardiologiya, endokrinologiya va onkologiya markazlari mas'ul bo'ladi.

Shuningdek, onkologiya bo'yicha har bir erta aniqlangan holat uchun tibbiyot brigadalariga mukofot berish tartibi joriy qilinadi. Bu tajriba 1-maydan Qashqadaryoda boshlanadi va kelgusi yildan boshqa hududlarda yo'lga qo'yiladi.

Xorijiy ekspertlar jalb etilib, eskirgan klinik protokol va standartlar xalqaro mezonlarga moslashtiriladi. Kasalligi yengil bemorlarni dori bilan emas, immunitetni ko'taradigan tabiiy vositalar, jismoniy mashq va fitoterapiya bilan davolash kengaytiriladi.

Tibbiyot sohasidagi 23 ta markaz, 12 ta oliygoh, 2 ta malaka oshirish markaziga zamonaviy menejerlar ishga olinib, ular xalqaro akkreditatsiyadan o'tkaziladi.

## ✓ Munosabat

## MAKTABGACHA TA'LIM - ENG USTUVOR YO'NALISH



Zumrad BEKATOVA,  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi deputati

Yangi O'zbekistonda davlat maktabgacha ta'lim muassasalari bilan davlat-xususiy sheriklik shaklidagi, xususiy va oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yilgach, maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni hamda bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovi sezilarli darajada oshdi. Agar 2017-yilga nisbatan maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 5211 tadan qariyb 29,5 mingtaga yetgan bo'lsa, bolalarni maktabgacha ta'limga qamrovi 2,5 barobarga oshib, 72 foizga yetdi.

2024-yilgi Davlat dasturi loyihasida ham maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to'liq qamrovini ta'minlashga qaratilgan ustuvor vazifalar o'rin olgani e'tiborga molik. Xususan, maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini 2024-yil yakuniga qadar 76 foizga yetkazish maqsadida 1 400 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi, shu jumladan, oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, investitsiya dasturi doirasida 38 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish va 134 tasini rekonstruksiya qilish orqali 10 460 ta qo'shimcha yangi quvvatlar yaratish, 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlov tizimi bilan qamrov darajasini 96 foizga yetkazish maqsad qilingan. Shuningdek, bolalarni maktabga tayyorlov

tizimini takomillashtirish maqsadida 170 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlarida zamonaviy ta'lim planshetlari va sensorli ekranli interaktiv doskalardan iborat kompyuter guruhlarini tashkil etish uchun texnikalar xarid qilish, takomillashtirilgan «Ikki qadam» davlat o'quv dasturi asosida respublika bo'yicha 30 nafar milliy master trenerlarni, hududlar bo'yicha 206 nafar trenerlarni, maktabgacha ta'lim tashkilotlari bo'yicha 6 661 nafar metodist va pedagoglarni o'qitish va tayyorlash belgilanmoqda.

Dastur loyihasidan o'rin olgan ushbu vazifalarning amalga oshirilishi, shubhasiz, bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrov darajasi oshishiga, 6 yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlov sifati yanada yaxshilanishiga, eng muhimi, sog'lom bolalar safi kengayishiga xizmat qiladi.

Ayni paytda Dastur loyihasi Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan chuqur o'rganilib, fraksiyalar, qo'mitalarda keng muhokama qilinmoqda. Jumladan, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida ham atroflicha ko'rib chiqilib, partiya saylovoldi dasturidan kelib chiqqan holda ta'lim va tarbiya tizimini isloh qilish, turizmni yanada rivojlantirishga oid qator takliflar bildirildi.



## YOSHLAR PARLAMENTI BONG URADIGAN MASALA

(Boshlanishi 1-sahifada)

Yanada aniqroq aytganda, 12 turdagi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z aybiga iqrar bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, sud uni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilib ishini tugatishi mumkin.

Qayd etish lozim, «Yarashuv instituti» bugun fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiligiga chek qo'yishi bilan birga er-xotin, yaqin qarindoshlar, qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi kelishmovchilik o'zaro adovatga aylanib ketishining oldini olmoqda, huquqbuzarliklarning kamayishiga xizmat qilyapti. Shu bois, bugun qonunchilikda yarashuv institutini qo'llash doirasini yanada kengaytirishga ehtiyoj paydo bo'ldi.

Shu maqsadda «Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonuni loyihasi ishlab chiqildi.

Loyiha bilan yarashuv institutini qo'llash doirasini 12 tadan 15 tagacha ko'paytishi taklif etilyapti.

«Milliy tiklanish» demokratik



partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishida deputatlar ushbu qonun loyihasini qizg'in muhokama qilib, birinchi o'qishda bir ovozdan konseptual qo'llab-quvvatladilar. Chunki «Yarashuv instituti» doirasining kengayishi partiyaning maqsad va vazifalari bilan hamohang. Ammo deputatlardan Bekmirza Eshmurzayev, Farhod Ashmatovlar loyihaing ayrim moddalariga e'tiroz bildirib, ular bo'yicha ikkinchi o'qishda ko'plab takliflar berishini bildirdi.

Yig'ilishda Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamentining 2023-yildagi faoliyati yakunlari ham muhokama qilindi. Bu haqida Yoshlar parlamenti raisi Shaxnoza Joldasovaning axboroti eshitildi.

Ta'kidlanganidek, Qonunchilik palatasi Kengashining 2022-yil 12-dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi

Yoshlar parlamenti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori bilan Yoshlar parlamenti faoliyati tubdan takomillashtirildi. Mazkur qaror asosida a'zolari saylash tartibi o'zgartirildi va a'zolar soni Qonunchilik palatasi deputatlari soniga mutanosib ravishda 250 dan 150 nafarga o'zgartirildi. Ya'ni, bugun siyosiy partiyalar qonunchilik palatasida nechta o'ringa ega bo'lsa, Yoshlar parlamentida ham shuncha o'ringa ega. Shu bilan birga har bir siyosiy partiyaning fraksiyasi tashkil qilindi. Ichki saylov asosida fraksiya rahbari saylandi va ular Yoshlar parlamenti raisining o'rinbosarlari hisoblanadi.

Sh. Joldasovaning ta'kidlashicha, Yoshlar parlamentidagi bunday o'zgarishlar aynan «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi, Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi raisi Jahongir Shirinov tashabbusi

asosida ishlab chiqilgan. Keyinchalik u Kengash tomonidan qo'llab-quvvatlandi va kuchga kirdi.

Yoshlar parlamentining eng asosiy vazifasi Qonunchilik palatasida ko'rib chiqilayotgan qonun loyihalariga yoshlar huquqlari va qonuniy manfaatlaridan kelib chiqqan

esa qariyb 2000 ta taklif ilgari surildi. Yoshlar parlamentidagi «Milliy tiklanish» fraksiyasi bu borada faol bo'ldi. Ularning bu boradagi ko'rsatkichi 595 tani tashkil qildi.

Fraksiya a'zosi Farhod Ashmatov esa 2023-yilda 1709 ta yo'l-transport hodisasi aynan yoshlar ishtirokida sodir

oliy o'quv yurtlari, maktablarda bo'lib, bu haqda bong urishi, yo'l qoidalariga amal qilish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirishga yordam berishi lozim, — dedi deputat.

Umida Rahmonova Yoshlar parlamentiga saylangan bu galgi yoshlar o'tgan chaqiriqdagilarga qaraganda anchayin faol ekani, eng asosiysi, bu yoshlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda o'zlarining taklif va tashabbuslari bilan faol ishtirok etishga harakat qilayotganini ta'kidladi.

Partiyamizning Yoshlar parlamentidagi a'zolari fraksiyaning har bir yig'ilishida masofadan bo'lsa ham nafaqat ishtirok etishi, so'z olib, takliflarini berishi, fikr-mulohazalarini bildirishi lozim. Bu ular uchun katta maktab bo'ladi, — dedi fraksiya rahbari Alisher Qodirov.

Ravshan MAHMUDOV,  
«Milliy tiklanish» muxbiri

2023-YILDA 1709 TA YO'L-TRANSPORT HODISASI AYNAN YOSHLAR ISHTIROKIDA SODIR ETILGANI VA BUNDAN 263 NAFAR BOLA BEVAQT OLAMDAN KO'Z YUMGAN, 1500 NAFARGA YAQINI TAN JAROHATI OLGAN.

holda taklif va tavsiyalar berish hisoblanadi. Jumladan, hisobot davrida 21 ta qonun loyihasiga 455 dan ortiq takliflar berildi. Qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotining dolzarb muammolarini yoshlar ishtirokida muhokama qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha

etilgani va bundan 263 nafar bola bevaqt olamdan ko'z yumgani, 1500 nafarga yaqini tan jarohat olgani haqidagi statistikani keltirib, Yoshlar parlamenti keyingi faoliyatida bu masalaga jiddiy e'tibor qarantishi lozimligini ta'kidladi. — Yoshlar parlamenti a'zolari

✓ Dolzarb mavzu

## MILLIY

# KO'NGIL



BUGUNGA KELIB VATANIMIZ MANFAATINI AXBORIY JIHATDAN HIMOYA QILAYOTGAN KASB EGALARINI TOM MA'NODA VATAN HIMOYA-CHILARI DEB ATASH MUMKIN.

Qayd etish joizki bugunga qadar ham jurnalistlar haqida turlicha qarashlar, ular faoliyatining o'ziga xos o'lchov va mezonlari bo'lgan. Ushbu kasb egalari xalq manfaatini ko'zlab axtorot tarqatadilar va xalq manfaatiga tahdid solishi mumkin bo'lgan har qanday xatti-harakat, jamiyatda yoki bu sohada tahdidga sabab bo'ladigan kuchlar, holatlar haqida jamiyatni ogohlantirib boradi. Jurnalist, OAV va kasbiy tamoyillar haqida gap ketganida jurnalist faoliyatida ochiqlik va haqqoniylik tamoyili ustuvor sanalishini aytish joiz. Xoh davlat ichidagi, xoh tashqi siyosatga aloqador masalalar bo'lsin, ushbu kasb egalari ana shu prinsiplar asosida ish olib boradilar. Albatta, bunday vaziyatda jurnalistlarga tahdid solayotgan bir necha holatlar ham bor: birinchisi, bu jurnalistning ichki senzurasini. Ikkinchisi esa ushbu senzura jurnalist faoliyatiga sun'iy ravishda kiritmoqchi bo'lgan kuchlar.

Ta'kidlash lozimki, bugun jurnalist O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonini faol yorituvchigina emas, balki milliy manfaatlarimizga rahna soladigan holatlarni ko'rsatib, millat va mamlakat ravnaqi uchun xizmat qilayotgan insonlar hamdir. Bu borada ular chinakam vatan himoyachilari sifatida keng ko'lamli faoliyat olib borishyapti.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib-chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlar qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash hamda iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti. Ayni shu jarayonlarda milliy kontent yaratish nihoyatda muhim va ustivor vazifa ekani yaqqol ko'zga tashlanadi. Qayd etish joizki, Prezident Shavkat

Mirziyoyev 12-yanvar kuni Xavfsizlik Kengashining Qurolli kuchlar va harbiy-ma'muriy sektorlarning 2023-yildagi faoliyati yakunlari va yaqin istiqbolga mo'ljallangan vazifalari muhokamasiga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishda axborot xavfsizligi masalalariga to'xtalib, mamlakatda milliy kontent yaratishning dolzarbligini ham alohida ta'kidlagan edilar.

Milliy kontent haqida gap ketganda, nihoyatda muhim bir masala — ya'ni, mamlakat tashqarisida O'zbekiston haqida tarqatilyotgan ma'lumotlarni haqqoniy yoritish masalasi kun tartibiga qo'yiladi, albatta. Boshqacha aytganda, milliy kontent bu ham O'zbekiston, ham tashqi dunyo uchun ahamiyatli bo'lgan axborotlarni milliy manfaatlarimiz nuqtayi nazaridan izchil yoritib borish deganidir. Milliy kontentni til nuqtayi nazaridan ko'rib chiqsak, bu ham O'zbekiston aholisiga tushunarli bo'lgan davlat tilida, ham tashqi auditoriya uchun xorijiy tillarda tarqatish masalasi ekani ayonlashadi. Bunda esa islohotlarni haqqoniy, xolisona va tezkor yoritishga qodir bo'lgan axborot kanallarini tashkil etishgacha bo'lgan jihatlar ham qamrab olinishi kerak.

E'tibor bering, jahon miqyosida 2006-yildan 2020-yilgacha bo'lgan davrda 1200 dan ortiq jurnalist yangiliklar tarqatgani va jamoatchilikka ma'lumot yetkazgani uchun o'ldirilgan. YUNESKOning qayd etishicha, agar 2020-yili dunyo o'ldirilgan odamlarning 6 foizini jurnalistlar tashkil etgan bo'lsa, 2021 — 2022-yilda bu ko'rsatkich 11 foizga yetgan.

Yana bir manbada qayd etilishicha, 2023-yil boshidan buyon dunyo bo'ylab 94 nafar jurnalist va OAV xodimlari halok bo'lgan. 400 ga yaqin jurnalist esa turli mamlakatlarning qamoqxonalarda saqlanmoqda. Qancha jurnalist tazyiq va zo'ravonliklarga uchratayotgani haqidagi ma'lumotlar o'zgarib turgani bois muqobil bir raqamni keltirib bo'lmaydi. Ammo shu raqamlarning o'ziyoq bu kasbning nechoqli og'ir ekanini bildiradi.

Tan olish kerak, axborot har qanday jamiyatning ma'lum bir qarorlar qabul qilishida muhim vosita, hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuningdek, to'g'ri axborot yetkazish qaror qabul qilish darajasidagi ahamiyatli vazifa ham sanaladi. Ya'ni, davlat rahbari yoki davlat idorasi va organlari mutasaddilari to'g'ri qaror qabul qilishlari uchun ularga jamiyatdagi

mavjud holatni boricha ko'rsatadigan jurnalistlar kerak. Shuning uchun ham jurnalistlar erkinligini cheklashga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chindan ham to'rtinchi hokimiyat vakillari axborot xizmatlari taqdim etgan ma'lumotlarni tahlil qilib, solishtirib o'z vaqtda jamiyatga, aholiga yetkazishda muhim rol o'ynaydilar.

Milliy kontent, OAVlar taqdiri yoki mediamakonning bugungi holati haqida gap ketganida so'z erkinligi mas'uliyatini yetarlicha his qilyapmizmi deganga o'xshagan savollar ham ko'p berilyapti.

Aytish kerakki, so'z erkinligi uchun har bir fuqaro, har bir rahbar, har bir mutasaddi, jumladan, jurnalistlar ham teng mas'uldirlar.

Nega? Chunki so'z erkinligi mohiyatida mas'uliyat bor. Aytilyotgan, yozilyotgan yoki efgira uzatilyotgan har bir so'z hamda tarqatilyotgan axborot zamirida mas'uliyat, kerak bo'lsa javobgarlik bor. So'z erkinligi ayni paytda katta bir siyosiy maydon hamdir. Unda ovozingiz baralla yangrashi, tahlillar, faktlar, dalillarga asoslangan bo'lishi va bu ma'lum ma'noda jamiyatda to'g'ri qaror qabul qilishida juda ham muhim ekani anglashiladi. Jahonda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga milliy manfaatlarimiz nuqtayi nazaridan baho berib, xalqimizni turli axborot xurujlaridan saqlashga erishish uchun esa har tomonlama professional jurnalist kadrlarga ehtiyoj yuqori ekanligi sohada doimiy ravishda yangi islohotlar o'tkazishni talab etadi.

Umuman olganda, so'z erkinligi, milliy kontent yaratish zaruratining nechoqlik muhimligini anglash uchun millat yetakchisining ushbu fikrlarini keltirishning o'zi kifoya nazarimda:

«Biz O'zbekiston axborot makonida milliy kontent yaratishni o'z qo'limizga olmas ekanmiz, dunyodagi voqealarga milliy manfaatlarimiz nuqtayi nazaridan baho bermas ekanmiz, bu ishlar xorijdan turib amalga oshirilishiga imkon yaratib beramiz. Chunki odamlardagi yangilik, tahliiliy ma'lumotlar, real voqealarga ehtiyojni biz to'ldirmas ekanmiz, buni boshqalar qiladi. Bunga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi».

Nozima MURATOVA,  
O'ZJOKU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

## DAN MAS'ULIYAT CHEGARASIGACHA

# QUR'ONI KARIMNI

## QANDAY TUSHUNMOQ KERAK?

O'zbek xalqining insoniyat taraqqiyotidagi xizmati ulug', albatta. Islom tamaddunining yuzaga kelishi va gullab-yashnashida ham ajdodlarimizning o'ziga xos o'rinlari ekan, biz bu muqaddas vazifani bajarish, o'tmish qadriyatlarimizni yoshlar qalbiga singdirish, ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda tarixiy tafakkur va haqiqatning ahamiyati cheksiz ekanini to'liq anglaymiz. Shu ma'noda bir fikrni aytgan musulmonchilik faqat ibodatdan iborat emas, balki bu birinchi galdan juda keng ma'nodagi ta'limga ega. Uni tushunish uchun Qur'oni karim o'yatlarini va hadislarini diniy va dunyoviy mazmunlarini ajrata bilmok kerak.

Bu masalada men arxeolog bo'lganim bois, dinshunoslik, islomshunoslikda bilimdon sharqshunoslar bilan tez-tez uchrashib, ularga qalbimni tirnagan savollar bilan murojaat qilib, o'z qarashlarimga oydinlik kiritib boraman. Ayniqsa, bu masalada bedilshunos ustoz I. Mo'minov, diniy qarashlarning arxeologik talqinida tengi yo'q ustoz Ya. G'ulomov, forobiyshunos M. Xayrullayev. Qur'oni karim va hadisshunoslik ilmining darg'alari Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, M. Usmonov, N. Ibrohimov, U. Uvatov, A. Hasanov, Abdulaziz Mansur, M. Nuriddinov kabi olimlar bilan kechgan o'zaro fikr almashuvlarim mening ilmiy izlanishlarimni to'g'ri yo'lga burib, Qur'oni karim suralarida yashiringan bir olam tarixiy haqiqat «Sendan harakat, mendan barakat» g'oyasi zamirida Hazrati Inson omili mujassam ekanini tushunib yetdim.

Ma'lumki, Qur'oni karim bizgacha kufiy arab alifbosi va arab tilida yetib kelgan. Qur'oni karim asliyotini o'qiy oladigan islomiy diniy mutaxassislar bizda yetarli darajada bor. Ammo ularning gumanitar fan yo'nalishlarida tarixiy tafakkurlari mukammal bo'lmaganliklari tufayli, bunday murakkab qomusiy ta'limga ushbu ish olib borishlari ancha yil qiyin kechishi masjidlarda o'qiladigan juma namozlarida ayon bo'lib qoldi.

Aslida islomshunos olimlarning ta'kidlashicha, Qur'oni karim botiniy bilimlar xazinasi, uning o'yatlarida yashirinib yotgan ilmiy ma'nolar, kashf etilishini kutayotgan mo'jizalar shunchalar ko'pki, ularni o'rganish qur'onshunoslikning tub mohiyatini ochishni taqozo etadi.

Jahon ilmiy olamida Qur'on lug'ati, Qur'on qomusi, Qur'on tafsirlari, Qur'on tarjimalari bor. Lekin Qur'on falsafasi yo'q. Chunki Qur'on falsafasini yaratish uchun tadqiqotchi Sharq falsafasini chuqur bilmog'i, shu asosda Qur'onning ichki ruhiyatini o'rganishi kerak. Bugun, ayniqsa, bu juda zaruriy va murakkab muammodir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Islom dini birinchi galdan keng ma'nodagi buyuk va benazir ta'limga ega. Lekin uni aslo o'zgarib, ya'ni faqat ibodat uchun qo'llanma sifatida qabul qilish mumkin emas. Ibadat masalalari bu ta'limga bir qismi, xolos. Qur'on o'yatlarida yashiringan botiniy sir-asrorlarni o'rganish,

kashf etish bilan esa Muhammad alayhissalotu vassalomning vorislari – diniy va dunyoviy olimlar zimmasiga yuklatilgan. Ammo olimlar o'z qarashlariga ko'ra ikki xil yo'nalishda tarbiya topganlar. Birinchisi, borliqni faqat ilohiyat qudrati bilan bog'laydilar. Bular diniy ulamolar. Ikkinchisi, qalbidan Alloh deya, barcha mo'jizalarning yaratilishi inson omili bilan bog'liq ekanini tarixiy haqiqat deb biladiganlar. Bular dunyoviy olimlar bo'lib, ular islom tamadduni mo'jizalarini yaratilishida Hazrati Inson omili g'oyasini olg'a suradilar.

Aslida diniy va dunyoviy nuqtayi nazaridan qaraganda iymonli bo'lish kishining mukammalligidan dalolat beradi. Shuningdek, Qur'oni karimda ham avvalam bor iymon haqida gap boradi. Xo'sh, iymon nima? Iymon islomda Allohning yagona ekanini tan olish, uning irodasi va xohishiga itoat qilishdir. Uning irodasi nima? Alloh ko'rsatgan yo'ldan borish, ya'ni hayotda to'g'ri yo'ldan borish.

Bor olamni yaratganning ko'rsatgan yo'li qanaqa?

Hidayat yo'li. Hidayat yo'lining o'zi nima?

Alloh buyrgan amallardan tashkil topgan yo'l.

U qanaqa amallar? Solih amallar. Solih amallar nima? Insonning kundalik hayotiga faqat manfaat keltiradigan, boshqa insonlar bilan ziddiyat va nizolarni keltirib chiqarmaydigan, solih amallarga zid bo'lmagan amallardir. Qur'onda ular «munkar amallar» deb yuritiladi. Solih amallarga teskari amallar esa «nahiy anil munkar» deyiladi. Shayton odamzodni doimo shu yo'lga yetaklaydi.

Iymonni toza saqlashning birinchi yo'li esa islomda Allohning yagonaligi, borliqni yaratuvchisi deb bilishlik, masjidga borish, ibodat amallarini tahoratda muntazam bajarishdir. Ammo, tahoratli masjidda namoz o'qish bilan iymonni toza saqladim deb xotirjam bo'lish mumkinmi? Yo'q. Bu bilan iymon toza bo'lib qolmaydi. Iymon sofligining birinchi talabi bu solih amallarga zid ishlardan saqlanish, sabr-toqat bilan solih amallarni bajarishni kundalik turmush tarziga aylantirish, muhsin bo'lishlikdir. Bularning barchasi hayot taqozo etgan iymondir.

Xo'sh, Muhsin degani nima? Faqatgina yaxshi solih amallarni bajarib, undan boshqasiga qo'l urmaydigan insonlarga muhsin deb aytiladi. Bularning barchasi ruhiyatni tozalashdir. Bu islom

QUR'ONNING O'ZBEKCHA AKADEMIK TARJIMASI VA IZOHLI LUG'ATLARIDA HAM O'Z AKSINI TOPGAN. ARAB, FORS, INGLIZ, RUS, NEMIS TILLARINING CHUQUR BILIMDONI, ZUKKO ISLOMSHUNOS OLIM MAHMUDJON NURIDDINOVNING «QUR'ONI KARIM MA'NOLARINING ARAB TILIDAN ILMIY IZOHLI AKADEMIK TARJIMASI» 2018-YILI O'ZBEK TILIDA GERMANIYADA CHOP ETILDI.

diniga xos sifatlar belgisidir, ya'ni insoniy amallarning sifatlar belgisidir.

Islomda ruhiy ibtido tushunchasi bor. Hayotida moddiy ibtido bor.

Ruhiy ibtido nima? Ruhiiy ibtido jannatda nurdan yaratilgan farishtalardek yashash. Xo'sh, moddiy ibtido nima? Qoinotdagi borlik, shu jumladan Yer. Ularni boshqaruvchi kim o'zi? Islomda Alloh. Amalda Hazrati Inson.

Alloh moddiy borliqni yaratganda u makonda yashaydigan turli xil mahluqalarni yaratdi, ularga jin ato etdi, deyiladi. Ammo odamzodga ulardan farqli o'laroq aql ham ato etdi, degan ibora bor. Odamzodni moddiy borliqqa sinash, uning sir-sinoatlarini bilish, qiyomatgacha o'rganishga tushirdi, deyiladi. Bu ham diniy, ham hayotiy haqiqatdir.

Yuqorida islom tor ma'noda ibodatdir, keng ma'noda esa ta'limga ekanini eslatdik. Moddiy borliqning botiniy sir-sinoatlari Qur'oni karim o'yatlarida yashiringan. Uni o'rganish, bilish islomda jismi loydan yasalgan Insonga yuklatildi. Alloh bandalariga moddiy dunyoda iymonini toza saqlash yo'lidagi islomning besh rukunini bajarish bilan birga, Qur'oni karim o'yatlarida berkingan botiniy bilimlarni kashf etishni ham yukladi. Shuning uchun islomni tor ma'noda tushunadigan bo'lsak adashgan bo'lamiz.

Qur'oni karimda «sendan harakat, mendan barakat» degan hayotiy so'zlar bejiz yozilmagan. Ongli va jismoniy mehnat bilan ruhiy yuksaklikka erishgan ulamolarimiz «Qalbing Allohda, qo'ling mehnatda bo'lsin» degan naql bilan yashamaganda edi, odamzod ibtidoiy holatdan hozirgi raketalar parvoziga erishmagan bo'lar edi.

Din jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi, tarbiyalovchi ruhiy omil sifatida ham insoniyatga xizmat qiladi. Din poydevorida esa axloq bor. Axloqiy tarbiya shubhasiz, dinimizning asl mazmun va mohiyatini tashkil qiladi. Agar odamlar o'zidan oldingi odamlarning xatolaridan kelib chiqib, tarixiy haqiqat izidan borib, ma'naviy hayotini shakllantirganda edi, jamiyatda bugungi kunda uchrayotgan xatolar bo'lmas edi.

Afsuski, axloq tarbiyasida har bir inson o'zini o'rab olgan ijtimoiy muhitga burkanib yashadi. G'arb dunyosidan kirib kelayotgan yalplashuv jarayonlari ta'sirida inson sun'iy ravishda uyushtirilayotgan urf-odatlariga bo'ysunib, xato qilayotganini sezmay ham qoladi. Eng achinarlisi shundaki, keyingi yillarda nafs balosiga giriftor bo'lgan odamlar pulni ilohiylashtirdilar. Oqibatda aksariyat katta-kichik kishilar tarixiy tafakkur bo'shligi uchun islom axloqiga zid hayot kechirdilar. Bu masalada turli telekanallar orqali efirga uzatilayotgan islom axloqiga zid ko'rsatuvlar o'zbek xalqining ham axloqiy tarbiyasiga zarar keltirmoqda. Agar islomni tom ma'noda emas, balki keng ma'noda tushunilganda edi,

masala yo'qki, ilmsiz hal etilsa. Shu bois, islom jahon taraqqiyoti omiliga aylangan. Islom omili xalqaro siyosat, iqtisodiyot, fan va madaniyat taraqqiyoti, bank tizimi, axloqiy tarbiya, sog'liqni saqlash tizimi, xullas, jamiyatning barcha jabhalariga kirib borgan. Bular haqida izlanishlar olib borish, ilmiy asarlar, kinofilmlar yaratish payti keldi. Bularning barchasi jamiyatni ma'rifatli islom yo'lidan borishga undaydi. Sharq faylasufi ham shu yo'lga ijdod etganlar. Xo'sh, nega bizning faylasuflarimiz bu yo'lga ijdod qilmayaptilar? Jamiyatni mafkurasiz, tarixiy tafakkur bilan sug'orilgan ma'naviyatsiz boshqarib bo'lmaydi. Ma'naviyat dunyoviylikdan uzilib qolsa, diniy fanatizm avj oladi. Yosh avlodni boshqarish qiyinlashadi.

Islomni faqat din deb, Qur'oni karimni esa faqat ibodat uchun qo'llanma deb tushunsak, u holda biz tuzatib bo'lmaydigan xatolarga yo'l qo'ygand bo'lamiz. Islom faqat din emas, balki yana takror aytaman, buyuk ta'limga, ijtimoiy ta'limga, tarixiy ta'limga, falsafiy ta'limga, tibbiy ta'limga, huquqiy ta'limga, xullas, jamiyat rivojlanishining barcha yo'nalishlarini qamrab olgan ta'limgadir.

Ro'za tutish, zakot to'lash, namoz o'qish, masjidga chiqish va haj ziyoratiga borish esa ibodat masalalaridir. Lekin islom faqat ibodatdan iboratgina emas-ku. Qur'oni karimning 114 ta surasini o'z ichiga olgan matnning barchasi ibodat emas. Qur'oni karim o'yatlarida yashiringan botiniy bilimlar shunchalar ko'pki, insoniyat ularni oxir zamongacha o'rganadi, kashf etadi.

JAHON ILMIY OLAMIDA QUR'ON LUG'ATI, QUR'ON QOMUSI, QUR'ON TAFSIRLARI, QUR'ON TARJIMALARI BOR. LEKIN QUR'ON FALSAFASI YO'Q. CHUNKI QUR'ON FALSAFASINI YARATISH UCHUN TADQIQOTCHI SHARQ FALSAFASINI CHUQUR BILMOG'I, SHU ASOSDA QUR'ONNING ICHKI RUHIYATINI O'RGANISHI KERAK. BUGUN, AYNIQSA, BU JUDA ZARURIY VA MURAKKAB MUAMMODIR.

aholining barcha qatlami bunday xatolardan yiroqroq bo'lardi.

Masalan, bizda – musulmon davlatlarda eshikdan kirib kelgan odamga o'rindan turib ta'zim bilan salomlashamiz. Buni axloq deb ataymiz. Amerikaliklarda esa ko'pincha suhbatdoshlar oyoqlarini ro'parasidagi stol ustiga qo'yib o'tirishadi. Bu bizda axloqsizlikning bir ko'rinishi sanaladi. Yoki boshqa bir misol: Afrikaning ba'zi bir ibtidoiy an'analar tasavvuri bilan yashayotgan qabilalarida axloq deb qabul qilingan narsa bizda umuman axloqsizlikka kiradi.

Aslida esa axloq – madaniyatning bir turi. Madaniyat jamiyatda asrlar davomida urf-odatlardan tarkib topgan qadriyatdir. Umuminsoniy qadriyatlar o'zidan kattani hurmat qilish, bolalar tarbiyasiga e'tibor berish, ota-ona bilan gaplashganda «uf» demaslik, hayotda ikki yuzlamachilik qilmaslik, ibratli bo'lish, ezgu niyat, ezgu so'z, ezgu amal bilan yashash, bularning barchasi ajdodlardan islomga o'tgan, endilikda ular islom axloqining tub mazmunini tashkil etadi. Ular islomgacha ham boshqa dinlarda, masalan, zardushtiylikda bo'lgan.

Demak, islom quruq yo'qlikda, bo'm-bo'shlikda paydo bo'lmagan. Bu tarixiy haqiqatdir. Jamiyatni johil odam boshqarganda ham ilm-fan mutlaqo to'xtab qolmaydi. Insoniyat bor ekan ilm-fan bo'ladi. Ammo payg'ambarimiz aytganlaridek, «olim xor bo'lgan joyda jamiyat bog'i ko'karmaydi». Islomda ilimga ham katta e'tibor berilgan, ilm inson omili tufayli rivojlanadi, deyilgan. Bugungi kunda Yer sharida birinchi ulkan

Yuqorida bayon etilgan Qur'on haqidagi tarixiy haqiqat esa islomshunos olim Mahmudjon Nuriddinov tomonidan amalga oshirilgan Qur'onning o'zbekcha akademik tarjimasini va izohli lug'atlarida ham o'z aksini topgan. Arab, fors, ingliz, rus, nemis tillarining chuqur bilimdoni, zukko islomshunos olim Mahmudjon Nuriddinovning «Qur'oni karim ma'nolarining arab tilidan ilmiy izohli akademik tarjimasini» 2018-yili o'zbek tilida Germaniyada chop etildi. Uning to'ldirilgan ikkinchi nashri ham aynan nemislarining «GLOBE.EDIT» nashriyotida 2021-yili nashrdan chiqdi. 2020-yili salkam 4300 dan iborat murakkab Qur'on so'z va iboralarining izohli lug'ati o'zbek tilida AQSHda chop etildi. Bugun esa yangi ma'lumotlar bilan to'ldirilgan, boyitilgan yangi nashri ham chop etilish arafasida.

Zotan, bugungi olimlar tomonidan yuzaga keltirilgan shunday qimmatli, ilmiy manbalarga asoslangan asrlarni xalqimiz mulkiga aylantirish maqsadga muvofiq bo'lsa kerak.

Islomning bugungi kundagi ta'limga masalasidagi vazifasi jamiyatdagi barcha tabaqalarni birlashtirish, turli dinlararo g'oyaviy kelishmovchiliklarni tinchlik yo'li bilan hal etishga qaratilmog'i kerak. Mustaqil O'zbekistonimizning ta'lim tizimining o'rta ta'lim maktablarida, oliy o'quv yurtlarida, radio va teleko'rsatuvlarda, mahalliy matbuotda, keng jamoatchilik orasida mana shu yo'nalishda targ'ibot-tashviqot ishlari muntazam ravishda olib borilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

### ✓ Ogohlik



Yurtdoshlarimizdan yashash joylari, ijtimoiy soha obyektlari va tadbirkorlik subyektlarida tabiiy va suyuq gazni ogoh qilib, qattiq yoqilg'i yoki neft mahsulotlaridan yoqilg'i sifatida foydalanishda xavfsizlik qoidalari va talablariga rioya etishlarini so'raymiz.

Shuningdek, gazdan foydalanishda xavfsizlik qoidalari va talablariga rioya etilishini ta'minlash, gaz plitalaridan uyni isitish maqsadida foydalanmaslik, qo'lbo'la va nosoz isitish pechlarini ishlatmaslik, isitish pechlarini ularning dudburon-mo'rikonlarini noto'g'ri o'rnatmaslik, isitish qozoni

va pechlar dudburonlari plastik quvurlardan yasamaslik, kuz-qish mavsumi oldidan dudburon-mo'rikonlarni ko'rikdan o'tkazishni va ular turli buyumlar bilan to'sib qo'yilmaganligiga ahamiyat qaratishlari lozim.

Ko'mir, tabiiy gaz va boshqa yoqilg'ilarni to'liq yonmasligi oqibatida undan ajralib chiqqan rangsiz, ta'msiz, hidsiz is gazi insonlarni zaharlashga olib kelishini unutmang!

U. TURSUNOV,  
Uchtepa tumani FVB  
Profilaktika va nazorat bo'linmasi  
inspektori, leytenant

## Lugmoni Hakimdan so'radilar:

– Eng dono kim?  
Aytidi: – Hayot qiyinchiliklaridan g'amgin bo'lmagan kishi.  
So'radilar: – Eng yaxshi boylik nima?  
Aytidi: – Aql.  
So'radilar: – Qaysi o't o'z yoquvchisini kuydiradi?  
Aytidi: – Hasad o'ti.  
So'radilar: – Qanday bino vayron bo'lmaydi?  
Aytidi: – Adolat binosi.  
So'radilar: – Qaysi achchiq narsaning so'nggi shirin?  
Aytidi: – Sabrning.  
So'radilar: – Qaysi narsaning oxiri achchiq?  
Aytidi: – Shoshqaloqlikning.  
So'radilar: – Qaysi dard bedavo?  
Aytidi: – Tentaklik.

Navoiyning kichik zamondoshi va shogirdi Xondamir o'zining «Makorim ul-axloq» asarida: «Haqoni oliy maqom Shohrux sultonning xalifalik davrida... izzat va iqbol gulshanida amonlik va umid mevalari beradigan bir daraxt ko'kardi, martaba va ulug'lik osmonida davlat va baxt-saodat ko'zini yorituvchi bir yulduz portladi, 17-ramazon oyi sana 844 tovuq yilida yo'qlik dunyosidan borliq olamiga qadam bosib, o'zining go'zalligi va porloq chehrasi bilan yer yuzini yoritdi», deb yozgan edi. Muarrir ma'lumotiga ko'ra, shoirning tug'ilgan yillari Shohrux Mirzoning hukmronlik yillariga to'g'ri kelgan. Uning otasi G'iyosiddin Kichkinani, tarixchi Davlatshoh Samarqandiy «Tazkirat ush-shuaro» asarida: «Bu dongdor amirning (ya'ni Alisher Navoiyning) buyuk martabali otasi o'z vaqtining mashhurlaridan va chig'atoy elining qahramonlaridan» ekanligini alohida e'tirof etadi.



# Alisherning ONASI

Navoiyning «Badoye ul-bidoya» devoniga yozilgan so'zbohisida esa temuriylar dargohi haqida yozgan quyidagi satrlarga duch kelamiz:

*Otam bu ostonning xokbezi,  
Onam ham bu saro bo'ston kanizi.  
Manga gar xud bo'lay bulbul  
va gar zog'  
Ki ushbu dargoh o'lg'ay  
gulshanu bog'*

Ushbu e'tirofqa diqqat qilar ekanmiz, shoir o'ta samimiy va kamtarlik bilan o'z oilasining temuriylar xonadoniga yaqinligini, o'zining «ota-onadan yetti pushtigacha», «oliy darajali xonadonning samimiy xizmatchisi» ekanini qalamga olganini ko'ramiz. Ammo afsuski, shoirning tarjimaiyati holida ham shoirning onasi haqidagi ma'lumotlar keltirilmaydi. Ayrim adabiyotshunoslarning taxminiy ma'lumotlariga ko'ra, shoir onasining ismi Halima yoki (Salima) ekanini aytib o'tiladi. U Kobulning amirzodalardan Shayx Abusaid Changiyning qizi bo'lgan. Otasining ismiga qo'shilgan «amir» lavozimini inobatga olsak, u ham temuriylarga yillar davomida sadoqat bilan xizmat qilganini tasdiqlaydi. Demak, Alisher Navoiy ham ota, ham ona tomonidan o'z davrining yuksak martabali avlod vakili bo'lgan.

G'iyosiddin Kichkina ana shu amirzoda Shayx Abu Said Changiyning qiziga uylangan. Bu nikohdan shoirning akasi amir Shayx Baxtul, amir Alisher Navoiy va ukasi Darvesh Ali dunyoga kelgan.

Buni Alisher Navoiy «Munshoat»iga kiritilgan 91-maktubida akasi Shayx Baxtulning nevarasi Mirzo Ibrohimbekka qarata aytgan fikrlari asnosida tilga olgan bo'lsa, ukasi Darvesh Ali haqida 92-maktubda ma'lumot beradi. Darvesh Ali Husayn Boyqaroning amirlaridan biri bo'lgan. Bir necha vaqt Balxga hokimlik ham qilgan. Shuningdek, akasi Shayx Baxtulbekni Xorazm hokimi bo'lganini maktublarida qayd etib o'tagan.

G'iyosiddin Kichkina xonadoni, yosh oila Hirotda istiqomat qilganida mamlakatni temuriy zoda Shohrux Mirzo (1447) boshqargan. Shoirning ota-onasi, aka-ukalari u voyaga yetgan oilaviy muhit haqida tasavvurga ega bo'lish uchun ona tomonidan yaqin qarindosh bo'lgan tog'alari haqidagi ma'lumotlar muhim ahamiyatga egadir. Tog'alari haqidagi aniq ma'lumotni Alisher Navoiy o'zining «Majolis un-nafois» tazkirasida keltiradi: «Mir Said el orasida «Qobuliy» laqabi bilan mashhurdir, faqirg'a tog'oyi bo'lur. Yaxshi tab'i bor edi, turkchaga moyli ko'proq erdi... Yana bir tog'asi haqida esa bunday yozadi: «Muhammad Ali - «G'aribiy» taxallus qilar erdi. Ul ham faqirg'a tog'oyi bulur erdi, Mir Said Qobuliyning inisidir. Xush muhovada va xushxulq va xush'ta'b va dardmand yigit erdi. Ko'proq sozlarni yaxshi cholar erdi. Uni va usuli xo'b erdi. Musiqiy ilmidin ham xabardor erdi. Xututni (xatning ko'pligi) ham bitur erdi». Ushbu ma'lumot ham oila a'zolarining she'riyatga alohida mehr, hattotlik san'atiga e'tibor, musiqqa ilmi chuqur o'rganganliklarini ko'rsatadi. Otalarining ismiga «Changiyn» rutbasining qo'llanishi

kanizlar Shohrux Mirzo haramida umrguzaronlik qilganlar.

Davlatshoh Samarqandiy Shohrux Mirzo, Abulqosim Bobur, Husayn Boyqaro saroyidagi malikalarga bo'lgan munosabat boshqa xonlari amirlarnikidan farq qilganini, ularning saroyda tutgan mavqeyiga qarab alohida saroy va ko'shklar, Hirotning orombaxsh va go'zal joylarida har biriga atab bog'lar barpo qilinganini ta'kidlaydi. Tabiiyki, bu kabi bunyodkorliklar asosan mamlakatda hukm surgan tinchlik, osoyishtalik davrida amalga oshirilgan. Hirotdagi malikalarga yaratilgan shart-sharoitlarda, shubhasiz, bosh malika Gavharshodbegimning o'rni beqiyos ekanligini muarrir alohida e'tirof etadi. Ayniqsa, malikalarga xizmat qiladigan xodimlari, kanizlarni tanlash, saroy ichkarisida bo'lib o'tadigan to'y-hashamlar, turli tadbirlar, ko'ngilochlar mashvaratlari uning xohish-irodasiga qarab amalga oshirilgan. Yoki Alisher Navoiy xonadoni bilan yanada yaqinroq bo'lgan Husayn Boyqaro saroyi malikalardan onasi Feruza Begim, nikohidagi Xadicha begim va boshqa ayollari bilan o'zaro munosabatlari, shoir onasining saroyga yaqinligini tasdiqlaydi.

Bu fikrni Husayn Boyqaro o'zining risolasida Alisher Navoiy bilan do'st bo'lganidan Allohga shukronalar aytganidan ham anglash mumkin. Shoirning onasi yoshligida Gavharshodbegimni ko'rgan yoki u haqida ko'plab ma'lumotlardan xabardor bo'lgan. Chunki malikaning, Hirotning o'sha davrdagi shon-shuhrati Samarqandda Bibixonimning yuksak martabasidan kam bo'lmaganini Abdurazzoq Samarqandiy o'zining «Matla'i sa'dayn va j'mai bahrayn» asarida 41 marta tilga olib, butun tafsilotlari bilan bayon qiladi. Shuningdek, muarrir uning siyosatdondlik faoliyati, hatto davlatni boshqarishdagi ishtiroki haqida ham so'z yuritadi. Saroy ichkarisida ham tartib-intizom uning qo'lida bo'lib, u yerda xizmat qiladigan xodimlarni tanlash, malikalarga bosh-qosh bo'lish, ichki tartib-qoidalarini nazorat qilishga katta e'tibor bergan.

Saroyning oliy tabaqaga mansub malikalari davrasida o'tkaziladigan tadbirlarga saroy tashqaridan taklif etiladigan mehmonlarni tanlashda, ularning oilaviy mavqei, nufuzi, marifati va madaniyatiga alohida e'tibor berilgan. Alisher Navoiyning onasiga malikaning nazari tushgani, uning saroyda xizmat qilish uchun lozim topilgani tasodifiy hol bo'lmay, balki bu oilaga bo'lgan hurmat belgisi hamdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Alisher Navoiyning onasi yuqoridagi talablarning barchasiga mos keladigan xonadon sohibasi bo'lgan deyish uchun to'la asos bor. Shu bois, saroyda malikalardan tomonidan o'tkaziladigan yig'inlarda, to'y-marakalarda, hurmatli nodima, hamsuhbat sifatida taklif qilinganligi haqiqatga yaqindir. Shoir aynan shu e'tiborni nazarda tutib, «saroy kanizi» iborasini qo'llagan. Aslida ham, shoirning onasiga ko'rsatilgan e'tibor ularning oilasiga bo'lgan hurmat belgisi edi.

Saroy malikalari haqida so'z borar ekan, Shohrux Mirzo saroyiga mansub bo'lgan yana bir malika xususida ham to'xtalib o'tish joiz. Bu malika Amir Temurning ikkinchi o'g'li Umarshayx Mirzoning umr yo'ldoshi Milkat o'g'adiri. Manbalarda Alisher Navoiyning bobolari faqat Shohrux Mirzoga xizmat qilibgina qolmay, balki shahzoda Umarshayx Mirzoga ham yaqin kishilar bo'lganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar uchraydi. Alisherning ota tomonidan bobosi Amir Temurning o'g'li Umarshayx

bilan emikdosh bo'lib, Boyqaro Mirzo hukmronligi davrida Qandahor amiri bo'lgan.

Navoiylar oilasining Umarshayx Mirzoga yaqinligini sabablari Milkat o'g'aning Hirotda kelib qolishi voqealari haqida Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla'i sa'dayn va j'mai bahrayn» asarida keltirilgan ma'lumot ham diqqatga sazovordir. Muarrir bergan ma'lumotga ko'ra, Umarshayx Mirzo o'z davrining e'tiborli kishilaridan bo'lgan Hizr o'g'lonning qizi Milkat o'g'aga uylanadi. Bu nikohdan ular ikki o'g'il farzand ko'radilar (Mirzo Iskandar va Mirzo Boyqaro). Kutilmaganda yosh shahzoda Umarshayx Mirzo 1394-yilning 24-martida tasodifan vafot etadi. (Aynan shu yil shu sanada Shohrux Mirzoning to'ng'ich o'g'li Mirzo Ulug'bek dunyoga keladi.) Shahzoda vafotidan so'ng taxminan 1395 - 1396-yillarda Amir Temur bu kelinini to'rtinchi o'g'li Shohrux Mirzoga nikohlab beradi va ikki o'g'li bilan Hirotda jo'natadi. Bu haqda muarrir Abdurazzoq Samarqandiy o'sha voqea ta'rifini quyidagicha izohlaydi: «...Milkat o'g'a sobiqan Mirzo Umarshayx nikohida bo'lib, Mirzo Iskandar va Mirzo Boyqarolarni (Umarshayxdan) tuqqan. So'ng uni hazratlari xonani said (Shohrux Mirzo) yangi xotin qilib o'z nikohiga olgan va Mirzo Suyurg'atmish ibn Shohrux Milkat o'g'adan tug'ilgan edi».

Bu ma'lumotlar Shohrux Mirzo saroyining yana bir e'tiborli malikalardan biri Milkat o'g'a ekanligini tasdiqlaydi. Uning Hirotda kelganidan to'rtinchi o'g'li (1441-yilda vafot etgan) bo'lgan sanani hisobga olsak, uning qirg'yildan ortiq umri Hirotda bog'liq bo'lganini ko'ramiz.

Shu o'rinda Alisher Navoiyning bobosi shahzoda Umarshayx Mirzoning xos mulozimi bo'lgani va ko'kdoshlik darajasiga egaligi inobatga olinsa, malika Milkat o'g'a ham bu xonadonga nisbatan katta hurmat va e'tiborga egaligini tasdiqlaydi. Alisher Navoiyning yosh onasi saroy malikalari davrasida Milkat o'g'a suhbatlarida bo'lganini taxmin qilish mumkin.

Malikaning keyingi taqdiri Balx shahri bilan bog'liq bo'lib, u yerda birmuncha bunyodkorlik ishlarini amalga oshiradi va o'z mablag'i hisobidan madrasa barpo etadi. U 1441-yilda vafot etadi. Uning qabri o'zi barpo etgan madrasa xonaqosidadir. Tabiiyki, Alisher Navoiy bu malikani ko'rmagan, ammo u haqida anchagina ma'lumotga ega bo'lgan va o'z xonadonlarining yaqin kishisi sifatida qadrlagan, aks holda u yuksak martabali lavozimlarda faoliyat olib borgan yillari malika barpo etgan Balxdagi madrasa, Hirotdagi Dorulshiffo faoliyatiga alohida ahamiyat bermagan bo'lar edi. Bu fikrni tasdiqlovchi muarrir Xondamir o'z asarida Alisher Navoiyning Milkat o'g'a Dorulshifosiga hirotki Mavlono Darveshni bosh tabib va mudarris qilib tayinlagani va alohida maosh tayin etganini aytadi.

Ammo, Shohrux Mirzoning vafoti (1447)dan so'ng, birmuncha vaqt mamlakatda notinchlik boshlanadi. Ma'lumki, temuriylarning biror avlodi bilan ma'lum darajada yaqin aloqada bo'lish, ayniqsa, xavfli bo'lib, taxtni egallagan boshqa avlod vakillari tomonidan qattiq jazolanishi mumkin edi. Shuning uchun Hirotning ko'plab aholisi vaqtincha ona shaharlaridan chiqib ketishga qaror qiladi. Ularning orasida G'iyosiddin Kichkinaning oilasi ham bo'lib, ular G'arib tomonga Taft shahriga qarab yo'l oladilar.

1452-yilning avgust oyida Abulqosim Bobur hokimiyatni qo'lga oladi va mamlakatda tartib-intizom tiklanadi. Abulqosim Bobur 1422-yilda tug'ilgan bo'lib, u Mirzo Ulug'bekning ukasi Boysunqur

Mirzoning o'g'li, Shohrux Mirzo va Gavharshodbegimning nabirasidir.

Shu yilda Hirotda qaytgan G'iyosiddin Kichkina Abulqosim Boburning saroyida xizmat qiladi. Bundan ko'rinadiki, Navoiylar xonadoniga bo'lgan hurmat va e'tibor Abulqosim Bobur davrida ham saqlanib qoladi. Bu haqda muarrir Mirxond o'zining «Ravzat us-Safw» asarida: «Ul janob amir Alisher bolalik ayyomi hamda yigitlik hangomi avvalida zafarnishon Xoqon mulozamatida kun kechirdi. Ul hazrat Sulton Husayin, Abulqosim Bobur bilan hamsuhbat bo'lgan kezlari amir Alisher ham ul oliy darajali podshohning mulozamatini ixtiyor qildi», deb yozadi.

Keyinchalik G'iyosiddin Kichkina Sabzavor shahri hokimi etib tayinladi. Akademik Ye.E.Bertelsning «Navoiy» nomli monografiyasida keltirilgan ma'lumotga ko'ra, G'iyosiddin Kichkina oilasini Sabzavorga ko'chirib olib ketmagan. Chunki, Alisher shu davrda Hirotda tahsilini davom ettirgan. Shu sababli uning onasi ham temuriylar saroyining yaqin kishilari sifatida tadbirlarda qatnashgan bo'lishi mumkin. Ammo, G'iyosiddin Kichkinaning 1454-yildagi vafoti, keyinchalik 1447-yilda Abulqosim Boburning vafotidan so'ng mamlakatda notinchlik boshlanadi. Hirot taxtni egallagan Abdusaid Mirzoning Shohrux Mirzo avlodlariga nisbatan olib borgan xuzurliklari, Gavharshodbegimning qat'ildirishi, Alisher Navoiyning tog'alari Mir Said Qobuliy va Muhammad Ali G'aribiyning qatli bilan bog'liq voqealar Alisher Navoiyning Samarqandga «xroj» qilinishi, kichik o'g'li Darvesh Alining hukumatga qarshi harakatlari bu oila uchun, asosan Alisher Navoiyning onasi uchun qattiq zarba edi.

Mazkur dolg'ali voqealar haqida, xususan, shoir onasining keyingi taqdiri haqida yozuvchi Pirmuqol Qodirov «Shohrux va Gavharshod» nomli romanining «So'nggi taskin» nomli bobiga qisqa lavha kiritgan. Unda aytilishicha, Hirotni Abdusaid Mirzo egallaganidan so'ng yolg'izlanib qolgan Gavharshodbegimni Bog'i Safeddagi qarorgohiga Feruzabegim, Alisher Navoiy va uning onasi Gulruhbonu yo'qlab borgan. Suhbat asnosida shoirning onasi, ya'ni Gulruhbonu Abdusaid Mirzoning G'iyosiddin kichkinadan qolgan hovli-joy, mol-mulkini tortib olib, o'zlarini ko'chaga haydaganliklarini, Feruzabegim ularni o'z panohiga olganligini so'zlab beradi. Voqeadan xabardor bo'lgan Gavharshodbegim larning Marvga ketish niyatlarini anglagach, Feruzabegimga tilla tanga, Gulruhbonga esa tilla bilaguzuk hadya qiladi.

To'g'ri, romanda tasvirlangan bu lavhada yozuvchi tarixiy voqealarni ochib berishda badiiy qahramonlar obrazini asarga kiritish uslubidan foydalanagan. Ammo badiiy obraz Gulruhbonu so'zlab bergan voqea G'iyosiddin Kichkina xonadoniga Abdusaid Mirzoning salbiy munosabatini yoritib bergan badiiy lavha bo'lish bilan birga, tarixiy haqiqatni ochib bergan ma'lumot hamdir. Alisher Navoiyning onasi bilan yaqin munosabatda bo'lgan saroy malikalari bilan birga, Alisher Navoiyning onasi Feruza begim vafot etadi. Malikaning vafoti bilan bog'liq ma'lumotlarni Abdurazzoq Samarqandiy «Mirzo Sulton Husaynning vafoti» asarida vafot topganligi zikrini (1469-1470) yil voqealari tafsilotiga kiritib shunday bayon qiladi.

«...ul hazratning volidasi yillar bu davlatni umid qilib kelgan. ...umrdan bir talayi o'tgach... Sulton Husayn mulku mol ixtiyorini mislsiz volidasiga topshirib, ertayu kech uning mulozamatida bo'ldi. Zamona o'z odatiga muvofiq bu shodlikni yoqtirmadi... (Feruza begim) bu foniy olamni tark etdi, to'rtinchi muharramda (14-iyul 1469) oliy jannatda bir to'da hurlar bilan hamnashin bo'ldi... Xiyobon ko'chasida xobgoh-maqbara tayin qilindi». Tabiiyki, Hirotda bo'lgan Alisher Navoiy yoshlikdagi do'sti, maktabdoshi Husayn Boyqaroning onasi Feruza begimning vafoti bilan bog'liq marosimlarda ishtirok etgan. Ammo, shoirning onasi haqidagi ma'lumotlar uning Hirotda qaytganidan keyingi voqealari tafsilotida ham tilga olinmaydi. Pirmuqol Qodirovning romanida Alisher Navoiyning onasi Feruza begim bilan Marvga ketganligini inobatga olsak, Husayn Boyqaro taxtni egallagach, onasi Hirotda qaytib kelgan. Marvda yolg'iz qolgan, Hirotdagi ko'rig'liklardan ozor chekkan shoirning onasi Xorazmdagi o'g'li Shayx Baxlulga xabar bergan va u onasini o'z huzuriga olib ketgan bo'lishi mumkin. Chunki,

Alisher Navoiyning Hirotda qaytganidan so'nggi voqealar tafsilotida, uning shaxsiy hayotda yolg'izligi, yonida yaqin kishisi bo'lmaganligi bilan bog'liq ayrim ma'lumotlar ko'zga tashlanadi. Bu haqda «Boburnoma»da muallif: «Alisherbek o'g'il va qiz va ahlu ayoli yo'q, alamni tavre fard va jaryida (yakka va yolg'izlik bilan o'tkardi), deya yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Alisher Navoiyning oila qurmag'ligining sabablari turli manbalarda har xil talqin qilgan.

Ammo shoirning o'zi Samarqandga ketayotgan vaqtda «Xurosondan Samarqandga ketishining asosiy sabablari, bu davrda kechirgan hayoti, ichki ruhiyati va kayfiyatini do'sti hamda ustoz Sayyid Hasan Ardasheriga yozgan she'riy maktubida batafsil bayon qiladi». Shoir maktubda ota-onasi yo'qligini, uning holdan hech kim xabar olmaganini, ahvoli og'irligini, shu bois oila ham qura olmaganini quyidagicha izohlaydi:

*Ne bir sho'x vasliga ul moyadast,  
Ki azimim ayov'iga bergay shikast.*

Bu satrlardan shoirning yaqin kishilari atrofida yo'qligi, hatto ketishiga monelik qiluvchi mahbusi ham bo'lmaganligi anglatiladi. Odatda, farzand taqdiri bilan bog'liq muammolar oilaviy majburiyat bo'lib, bu vazifani ota-onalar o'z zimmasiga oladi. Xususan, onalar farzandning oilali bo'lishini turli yo'lar bilan amalga oshiradigan kuchli xilqatdirlar. Nazarimizda, Alisherning taqdirini hal qiladigan onasi yonida bo'lmaganligi bois u yolg'iz qolib ketgan deb taxmin qilish mumkin. Nima bo'lganda ham, turkiy adabiyotda so'z san'atining eng yuksak cho'qqisini zabt etgan yagona bir zotni dunyoga keltirgan shoirning onasi ham zamonasining zakiy ayollaridan biri bo'lganligiga ishonchimiz komil. Shoir Abdulla Oripov o'zining «Alisherning onasi» nomli she'rida shunday satrlarni bitadi:

*Bilman, qanday ayol bo'lgan  
Alisherning onasi.  
Balki uning aqliga ham  
Lo'l qolgan zamonasi.  
Mayliga, u kim bo'lmagan,  
Yolg'iz bir so'z ma'nosi:  
Alisherning onasi u,  
Navoiyning onasi.*

Shoir aytganidek, Alisherning onasi o'z zamonasini o'zining aql-idroki bilan lol qoldirdi. Ammo u dunyoga keltirgan farzand arjumdani bashariyatni lol qoldirgani ayni haqiqatdir.

«Sharq yulduzi» jurnali,  
2023/10.

**ALISHERNING ONASI O'Z ZAMONASINI O'ZINING AQL-IDROKI BILAN LOL QOLDIRGANDIR. AMMO, U DUNYOGA KELTIRGAN FARZANDU ARJUMANDI BASHARIYATNI LOL QOLDIRGANI AYNI HAQIQATDIR.**

ham, bu xonadonda musiqqa ilmi e'tibor katta bo'lganini tasdiqlaydi. Oila muhitidagi yuksak madaniyat, san'atga oshuftalik tabiiyki, shoirning onasiga ham ta'sir etmasligi mumkin emas edi. Keyinchalik xuddi shunday marifatli, madaniyatli muhit G'iyosiddin Kichkina avlodlari xonadonida ham davom etgan.

Ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiyning onasi yuksak martabali oila bekasi, o'z davrining marifatli ayollaridan biri bo'lgan. Shoirning «...ul saroyning kanizi erdi» shaklidagi o'ta kamtarona jumlasini bevosita onasining saroy malikalari bilan yaqin munosabatda bo'lganligiga bir ishora ekanini ham anglatib turadi.

Aslida ham shoirning onasiga zamondosh, ayrimlari bilan yaqindan suhbatdosh bo'lgan malikalari Shohrux Mirzoning nikohidagi Gavharshodbegim, Milkat o'g'a, O'q Sulton o'g'i, kelinlari Malika Mehri Nigor (o'g'li Muhammad Jo'kining xotini), qizlari Maryam Sulton begim, nabira qizlari Hasiba Sulton Xonzoda begim (Mirzo Ulug'bekning qizi), Gavharshodbegim tarbiyalagan Oyshabegim (Boysunqur Mirzoning qizi) va bigza ma'lum bo'lmagan boshqa malikalari,



2021 йилда алимент ундируви билан боғлиқ 3 мингдан ортиқ ижро ҳужжатлари айнан аёлларга, аниқроғи, ўз боласини отасига қолдириб кетган муҳтарам оналарга қаратилган.

### БАКАЛАВРИАТ БЎЙИЧА 3 ЙИЛЛИК ТАЪЛИМ ДАСТУРЛАРИ АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАНАДИ

Жорий йил 2 февралда “Таълим соҳасидаги ислохотларни жадаллаштириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Президент қарори қабул қилинди. Қарорга кўра, “Таълим соҳасидаги лойиҳалар маркази” лойиҳа офиси ташкил этилади. Лойиҳа офиси 2024 йилда қуйидагиларни амалга оширади.

Жумладан: педагог кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизimini таҳлил қилиш; профессионал таълимдан сўнг олий таълимни давом эттириш имкониятларини янада кенгайтириш, 3 йиллик таълим дастурлари асосида амалий бакалавриат бўйича кадрлар тайёрлашни йўлга қўйиш; таълим соҳасида хусусий сектор улушини янада ошириш учун зарур шарт-шароитлар яратиш.

2024 йил 1 сентябргача ўқувчилар (таалабалар)нинг эгаллаган билимини ва педагогларнинг малакаларини баҳолаш тизими халқаро тажрибалар асосида такомиллаштирилади. 2024–2025 йилларда профессионал таълим йўналишлари, мутахассисликлари ва касблари классификатори – Хизматчиларнинг асосий лавозимлари ва ишчилар касблари классификаторига, таълим дастурлари эса янгиланган касбий стандартлар ва малака талабларига мослаштирилади. Камида 14 та профессионал таълим муассасаларининг фаолиятига тажриба-синнов тарикасида халқаро таълим дастурлари, камида 10 та олий таълим муассасаси фаолиятига – замонавий бошқарув усуллари ва таълим сифатининг юқори стандартлари жорий қилинади.

Педагогика, кишлоқ ва сув ҳўжалиги, техника, ахборот технологиялари ҳамда иктисодиёт соҳасида оид таълим йўналишларининг халқаро аккредитациядан ўтказилиши таъминланади.

ЎЗА

# ВОЗГАЙИШ ОНАЛАР

## ЎКИ АЛИМЕНТ ТУЛАЎТГАН ЎАЛАР ЎАКИДА ЭШИТГАНМИСИЗ?

Кейинги пайтларда алимент ундириш муаммоси нафақат эр-хотин, балки ўз ота-онасини қарамоғига олишдан воз кечайтган фарзандлар ўртасида ҳам кўпайиб бормоқда. Хусусан, оиласи билан ажрашган кўпга эрлар гўёки бола фақат онага тегишлидек “Ажрашишни ўзинг хоҳладингми, энди болаларингни ҳам боқиб ол...” қабилда иш тутмоқдалар. Ўки қуч-қувватдан қолган ота-онасини давлат қарамоғига ташлаб қўйган қимсалар таъминот пулини ҳам бермасликка уринишяпти.

Хўш, бунинг сабаблари нимада?

Кўпчилик, алимент ҳақида гап кетганда негадир дарров эркаклар кўз олдимизга келади. Аммо, таассуфки, бугун алимент тўлаётган оналар ҳам кам эмас экан. Мажбурий ижро бюроси маълумотларига кўра, 2021 йилда алимент ундируви билан боғлиқ 3 мингдан ортиқ ижро ҳужжатлари айнан аёлларга, аниқроғи, ўз боласини отасига қолдириб кетган муҳтарам оналарга қаратилган. Тўғри, бу рақам жами алимент ундируви билан боғлиқ ижро ҳужжатларининг бир қисmini ташкил қилади. Аммо онаси тирик бўла туриб, етимлик юқини елкасига олган болалар учун бу рақамларнинг оз ўки кўпчилиги муҳим эмас... Хулудий жиҳатдан аёллар томонидан энг кўп алимент тўлаш бўйича 2021 йилда Нукус (147 та) ва Самарқанд (144 та) шаҳарлари етакчилик қилган бўлса, ўтган йили бу борда Самарқанд (483 та) ва Фарғона (379 та) вилоятлари ўзларини «кўрсатди»лар.



Суръат Жабборов

– Бу, энг аввало, кадрятлар, оиладаги тарбия ва албатта, муваффақиятсиз асосга қурилган оилалардаги муҳит билан боғлиқ, – дейди МИБнинг Самарқанд вилояти бошқармаси бошлиғи Суръат Жабборов. – Тўғри, ушбу рақам умумий алиментлар фондида жуда оз ва ҳатто муҳокама қилишга заримасдек туюлиши ҳам мумкин. Аммо меҳрга муҳтож бўлган биргина гўдак ҳам шу жамиятнинг тўлақонли азоси ва у ҳам нормал яшаш ҳуқуқига эга эканини инобатга олсак, вилоятимизда қайд этилган 483 та ҳолатдан ҳар биримиз худоса чикаришимиз лозимлиги кўринади...

Айни пайтда тизimini рақамлаштириш ишлари олиб бориляпти. Ходимларимизнинг иш юклариси катта албатта. Аммо ижро тадбирларини тўлиқ онлайн амалга оширишга эришсак, иш самардорлиги янада ошади. Инсон омилли билан йўл қўйилмайдиган турли хатоликларнинг олди олинади. Алимент масаласига келсак, ҳисобот даврида жами 203,5 миллиард сўмдан ортиқ алимент пуллари ундириб бердик. Фуқаролар ўртасида олиб борилган профилактик суҳбатлар натижасида 7207 та оила яраштирилди. Маълумотга кўра, айни кунда вилоятимизда 378 нафар алимент тўловчи аёл бор...

Айтганча, кўпчилик оталарнинг аёлидан алимент олдинга гурури йўл қўймагани боис алимент тўлаётган аёллар сони тугал эмаслигини ҳам тан олиш керак. Йўқса, бу статистикалар бугунгидан анчагина салмоқли бўлиши мумкин эди.

Маълумки, Президентимизнинг 2022 йил 7 мартдаги «Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони билан Мажбурий ижро бюроси ҳузурида «Алимент тўловлари» давлат мақсади жамғармаси ташкил этилган. Бу институтнинг ташкил этилиши алимент олувчиларга анчайин энгиллик туздириганига қарамай, алимент қарздорлигини ўз вақтида ва тўлиқ ундириш билан боғлиқ муносабатлар сони камаймаяпти. Расмий манбаларда қайд этилишича, Германия, Буюк Британия, Франция, Австрия, Норвегия, Финляндия, Польша ва Латвияда алимент ундируви масаласига алоҳида эътибор қаратилиб, қарздор томонидан алимент тўланмаган тақдирда давлат томонидан махсус фондлардан тўлаб бериш йўлга қўйилган. Бу фондларнинг тегишли қонун нормалари билан тартибга солиниши эса ёш авлодининг моддий таъминотини қафолатлашни назарда тутди. Фонддан алимент тўланганда, бола таъминотида узилиш бўлмаслиги ҳамда тўлаб берилган алимент пуллари қарздордан кейинчалик ундириб олинishi белгилаб қўйилган. Мисол учун, Италияда ота-оналардан

ОЧИГИНИ АЙТИШ  
КЕРАК, АЛИМЕНТ  
ТЎЛОВЧИ  
ОНА, ОТА ВА  
ФАРЗАНДЛАР  
ЎАКИДАГИ  
СТАТИСТИКАЛАР  
КИШИНИ ЧЎҚУР  
МУЛОҎАЗА  
ҚИЛИШГА  
УНДАБ,  
ЖАВОБИ ЙЎҚ  
САВОЛЛАРНИ  
ТУГДИРАВЕРАДИ.

бири алимент тўлашдан бош тортса, суд орқали бобо ва бувидан алимент ундирилиши мумкин экан. Хитойда эса алимент тўлашдан бўйин товлаш алимент тўловчинини узок муддатга озодликдан маҳрум қилиш ўки ўлим жазосига ҳукм қилинишига сабаб бўлади.

Бизда эса 2023 йилга қадар алиментларни ўз вақтида тўламаган шахслар 15 сутка камок ўки базавий ҳисоблаш миқдорининг 20 баравари миқдорда жаримага тортилар эди. Ўтган йилдан бошлаб эса айбдорни 120 соатгача ҳақ тўланадиган жамоат ишларига жалб этиш жазоси ҳам қўлланила бошланди.

МИБ маълумотига кўра, 2021 йилда вояга етмаган фарзандига алимент тўлашдан бўйин товлаган 5300 дан ортиқ фуқаро маъмурий камок жазосига тортилган бўлса, 2022 йилда бу кўрсаткич 8700 дан ортган.

Дарвоқе, шу ўринда фарзандларнинг ҳам меҳнатга лаёқатсиз ота-онасига алимент тўлаши ҳақида камдан кам гапирлишини таъкидлаш жоиз. Афсуски, орамизда ўз ота-онасини эъзозлаб, хизматини қилишдек қадриятга кўз юмганлар ҳам учраб турибди. Алоҳида қайд этиш жоизки, Оила кодексининг 109-111-моддаларида вояга етган, меҳнатга лаёқатли болалар меҳнатга лаёқатсиз ва ёрдамга муҳтож ўз ота-онасига таъминот беришлари ва улар тўғрисида ғамхўрлик қилишлари

шартлиги белгилаб қўйилган. Кодексга кўра, ота-онасининг давлат ва нодавлат муассасалари қарамоғида эканлиги вояга етган меҳнатга лаёқатли болаларни ота-онага ғамхўрлик қилиш ва уларга моддий ёрдам кўрсатиш мажбуриятидан озод қилмайди.

Агар вояга етган, меҳнатга лаёқатли болалар ўз ота-оналарига моддий ёрдам беришдан бўйин товласалар, ота-она талабига кўра, таъминот суднинг ҳал қилув қарорига асосан белгиланади. Вояга етган, меҳнатга лаёқатли болалардан ундирилаётган алимент миқдори эса қонунчиликда белгиланган меҳнатга ҳақ тўлашининг энг кам миқдори (2023 йил 1 майдан- 980 000 сўм) 11,75 фоиздан кам бўлмаслиги керак. Вояга етган, меҳнатга лаёқатли болалар ота-онасининг касаллигига ва бошқа узрли сабабларга кўра қилинадиган қўшимча харажатларда ҳам иштирок этишлари шарт. Ота-онаси олдида фарзандлик бурчини бажаришдан бўйин товлаган ўғил-қизлар миллий қонунчилигимизга кўра, уч йилгача ахлоқ туза тиш ишлари ўки бир йилгача озодликдан маҳрум қилиш жазоси билан ҳам жазоланиши мумкин.

Очигини айтиш керак, алимент тўловчи она, ота ва фарзандлар ҳақидаги статистикалар кишини чўқур мулоҳаза қилишга ундаб, жавоби йўқ саволларни туздираверади.

Энг ёмони, бугун аёлларга нисбатан зўравонлик ва таъийк айни алимент тўлаш билан боғлиқ муаммолар ҳисобига ҳам ортиб бормоқда. Минг афсуски, бугун орамизда аёлини сариқ чақасиз кўнча хайдагани етмагандек, алимент сўрагани учун фарзандларнинг кўз олдида онасини дўшпослаётган ОТА, боласини эрига ташлаб хорижда сайру саёхат қилиб юрган ОНА, ота-онасини мурувват уйига жойлаштириб, ўзи хотиржа яшаётган фарзандларнинг борлиги оғрикли, албатта...

Умид қиламизки, бу борда олиб борилаётган ислохоту турли ижтимоий лойиҳалар мавжуд статистикаларни камайишига хизмат қилади.

Меҳри ЖАХОН

✓ Танлов

## ҚАЙТМАС ЖАМОАнинг навбатдаги лойиҳаси ҳам муваффақиятли яқунланди

Ихоят, “Фарғона ҳақиқати” – “Ферганская правда” газеталари тахририятининг “Бир макон, бир йўл”ни куриш, инсониятнинг ягона тақдирини ҳамжамиятини барпо этиш: Ўзбекистондан назар” публицистик таҳлилий мақолалар танловини яқунланди. Шу муносабат билан ташкил этилган тадбирда тахририятга 40га яқин мақолалар келиб тушгани маълум қилинди.

Танлов ғолибларини тақдирлаш маросимида хайрат раиси Ўзбекистон Миллий Ахборот агентлиги директори Абдусанд Кўчимов сўз олиб, ушбу газета Ўзбекистон ва Хитой муносабатларини янада яхшилашга хизмат қилганини таъкидлади.

Хитой Халқ Республикасининг Ўзбекистондаги элчиси Юй Цянь эса энди нафақат иктисодий муносабатлар, балки маънавий, маърифий соҳаларда, жумладан, журналистика борасида янги қўшма лойиҳалар амалга оширилишини билдирди.

Тадбирда, шунингдек, сенатор Фармон Тошев, Ўзбекистон ташқи ишлар вазириликнинг “Дунё” ахборот агентлиги директори Омонулло Файзиев, академик Нуриддин Тўхлиев, Фарғона Давлат университети ректори, профессор Баходир Шермухаммадов, “Жаҳон адабиёти” журнали бош муҳаррири Аҳмадjon Мелибоевлар сўзга чиқиб, бу каби танловлар журналистлар ҳамкорлигини янада мустаҳкамлашга хизмат қилаётганини билдирдилар.

Айтиш жоизки, “Фарғона ҳақиқати” – “Ферганская правда” газеталари тахририяти, аниқроғи, таникли журналист Муҳаммадjon Обидовнинг ташаббуси билан илгари сурилган ғоя Фарғонада бошланди, Ташкентда муваффақиятли яқунланди...

Тўғри, бугунги тезкор замонда тадбирлар, тадбирбозликлардан кўпи йўқ. Аммо ушбу тадбир бир жиҳати билан кўпчилик эътиборини тортиб дейиш мумкин: гарчи ушбу танловга вилоятда “старт” берилган бўлса-да, ушунчалар зўр тарғиб қилиндики, беихтиёр республика миқёсидаги тадбирга айлиниб кетди.

Бу, албатта, М.Обидовнинг ташкилотчилиги билан боғлиқ. Тан олиш керак, ҳали журналистлар уюшмасининг бирон-бир худудий бўлими Фарғона бўлимидагидек фаоллик кўрсатаётгани йўқ. Турли сафарлар, танловлар, қўнмаган кечалардан тортиб, олдий мулоқотларгача Фарғона олдинда. Муҳаммадjon Обидов етакчилик қилаётган газета

ҳақ гапни гапириб, Фарғонада «қора рўйхат»га тушиб қолганда ҳам жамоа ташаббус кўрсатишдан тийилмади, аксинча, кўпроқ изланди. Тўғри, қийинчиликлар ҳар қандай одамни, жамоани ҳам иккилантиради, йўлдан қайтаради. Аммо Обидов жамоаси қайтмади, турдош газета пайдо бўлганда ҳам сир бой бермади...

Бугунги тадбирда билдирилган фикр-мулоҳазалар, илиқ сўзлар эса ушбу жамоани янада янги ташаббуслар сарни илҳомлантиришига ҳам шубҳа йўқ.



Ўз муҳбиримиз

# БЕХБУДИЙ ОРЗУСИДАН ЧЎЛПОНИНИГ

Жадид боболаримизнинг ҳаёти ва фаолиятига оид маълумотлар килдира туриб, 1975 йилдан 1977 йилгача Истанбулда чоп этилган «Хур Туркистон учун» газетасининг бир неча сонларини топдик. Наشر саҳифаларида жадидлар ҳаёти ва фаолиятига оид маълумотлардан гўёки, миллат ойдинларининг орзу ва мақсадлари, изтиробларини, кайгулари, чуқур «ух» тортиган нафасларига гача уфуриб тургандек. Кайгули хабарларни ўқиганда Бехбудий бобомизнинг кўз ёшлари томганини, ўзаро муҳокамалар, Ватан тақдирини билан боғлиқ тортилган аламларнида тасаввур этдик.

1976 йили газетлада чоп этилган ТЕМУР ХУЖАҒЛИ МУАЛЛИФИГИДА «ТУРКИСТОНДА ЖАДИД МАКТАБЛАРИ» НОМЛИ МАҚОЛАДА ЁЗИЛИШИЧА, 1893 йилда ИСМОИЛБЕЙ ГАСПИРАЛИ БУХОРОГА КЕЛАДИ ВА ШУ ЙИЛИ УНИНГ ТАШАББУСИ БИЛАН САМАРҚАНДА ТУРКИСТОНДАГИ ИЛК ЖАДИД МАКТАБИ ОЧИЛАДИ.



Наشر ҳақида айрим маълумотлар Тохир Каххорнинг «Хур Туркистон учун» китобидан топилди. Муаллиф «Хур Туркистон учун» истиклолчи газетаси 1975-1977 йилга қадар мунтазам равишда Истанбулда турк тилида чиқиб турди. Унинг асосчиси, эгаси, умумий наشريёт мудир Зибуддин Бобокурбон эди. Газетанинг ёзув ишлари мудир Гундуғди Сарухануғли, идора мудир Нуриддин Покюррак эди. Бу наشر Туркияда, Америка, Оврупода, Осиё ва Африка минтақаларида яшаётган туркистонликлар ичида кенг тарқалди», деб ёзади. Китобда келтирилшича, мазкур наشر шўро даврида ватандан ҳақсиз равишда айро тушиб, муҳожириклада кун кечиршига мажбур бўлган туркистонликлар томонидан чоп этилган экан.

Тадқиқ довомида «Хур Туркистон учун» газетасининг 1975 йил 15 январдаги илк сонидан чоп этилган профессор Иброҳим Ёркиннинг «Махмудхўжа Бехбудий (ёзувчи ва маорифчи)» сарлавхали мақоласи эътиборимизни тортди. Тахририят имзоси билан эълон қилинган мақолада наشرнинг нима мақсадда чоп этилаётгани баён қилинади. Яъни, истиклол муаммоси, мустабиллар зулми остида қолган Туркистонни хур ва озод қўриш энг катта орзу мақсадлари бўлган жамоа ўз газеталарининг Туркистон истиклоли даъвоси хизматидаги наشر эканлигига ургу беради. Табиийки, юқорида тилга олинган мақоланинг берилиши ҳам шу маънода ижодий жамоанинг мақсад ва вазифаларини, газетанинг умумий йўналишини аке эгтирган. Зеро, бу «муҳожабада» Туркистондаги жадидчиликка, жадид боболаримиз қолдирган меросга юзланмаслик мумкин эмас.

ёзган удир. У 1912 йилда «Падаркуш» номли драма асарини ёзди ва бу асар 1913 йилда сахнага кўйилди». Шунингдек, олим Бехбудийнинг Самарқандда 1913-1915 йилларда «Ойна» журналини чоп эттириганига тўхталиб, нашрга Самарқанд ва унинг яқинидаги зиёдиларини ўз атрофига тўплаган бир марказ ролини ўйнаган, дея баҳо беради. Бу билан Бехбудий ва унинг сафдошлари Туркистон хуррияти учун курашда халқни, жамиятни маърифат билан қуроллантиришни муҳим мақсад қилиб белгилашганига ишора қилади. Профессор Наим Каримов ўзининг «Махмудхўжа Бехбудий» китобида Бехбудий вафотидан икки йил ўтиб, Лазиз Азиззодиннинг «Маориф ва ўқитувчи» журналида чоп этилган мақоласидан қуйидагича иқтибос келтирган эди: «Туркистоннинг уйғониш даврини уч қисмга – маориф, матбуот ва жамиятга бўлиб, шу давр раҳбарларини текшира бошласак, бу ҳаракатларнинг бошида Бехбудий турганлигини кўрамай». Келтирилган бу икки тақдир бир-бирини тўлдириб, Бехбудий ва сафдошлари ватан, миллатни уйғотиш, жамиятни миллий озодлик учун курашга

дидларининг отаси борасида сўз кетганда ҳам, мустабил тузум уни «совет режими душмани», «миллатчи буржуаларнинг мафкурачиси», «инглиз империализмининг жоусиси» каби тавки лаянатлар билан эсга олганини келтириб ўтади. Профессор буни шўронинг Бехбудий тимсоллида Туркистон озодлик ҳаракатини таг-туғи билан йўқ қилишига қаратилган жинояти сифатида кўради.

«Хур Туркистон учун» газетасининг «Шеър гўшаси» рукида Чўлпоннинг «Гўзал Фарғона», Ўзбекининг «Тил», Усмон Носирнинг «Юрак», Абдурауф Фитратнинг «Аччиғламма деган эдик», қозок туркларининг хурриятчи шоири Мағжон Жумабой ўғлининг «Туркистон» шеърларидан парчалар босилган. Хўш, мазкур газета ўз саҳифаларида Туркистондаги жадидчилик ҳаракати ҳақидаги маълумотларни мунтазам бериб борганими? Шу савол бизни ўйлантирган бонс, наشرнинг бошқа сонларини ҳам кўздан кечирдик ва қисман яна бир неча маълумотларни топдик. Хусусан, Иброҳим Ёркиннинг «Эшон Хўжа» номли мақоласида сарлавҳа ёнида қас инчида «1933 йилда Қошғар шаҳрида ташкил этилган Шарқий Туркистон жумҳуриятининг асосчиларидан, ички ишлар вазири ва давлат ташкилотчиси» дея Эшон Хўжа шахсига оид маълумот берилган. Мақоланинг кириш қисмида олим бу муҳтарам зот Туркистон жадидчилик ҳаракатида муҳим ўрин тутганини алоҳида таъкидлайди. Эшон Хўжа 1885 ёхуд 1886 йилда Тошкентнинг Шайхонтоҳур қисмида диндор Хон Хўжа хонадонидан таваллуд топгани, дастлаб отаси очган эски усул мактабиди, сўнгра қариндоши, жадидларнинг маънавий раҳнамоси Мунаввар қори Абдурашидхон ўғлидан дарс олгани таъкидланади. Газета мақоланинг давомида 4-сониди

давом эттиради. 1976 йили чоп этилган Темуր Хўжаўғли муаллифлигидаги «Туркистонда жадид мактаблари» номли мақолада ёзилишича, 1893 йилда Исмоилбей Гаспирали Бухорога келади ва шу йили унинг ташаббуси билан Самарқандда Туркистондаги илк жадид мактаби очилади. Темуր Хўжаўғли бу фактни Маннон Рамизнинг «Октябрь ва халқ маорифи» номли мақоласига иқтибосан келтиради: «Сўнгра бу илк жадид мактаби 40 кун ўтиб, амир тарафидан ёпилади. Бу илк жадид мактабини очган ўқитувчи кимлиги ҳақида ҳеч бир маълумот йўқ. Иккинчи жадид мактабини Салоҳиддин домла исми бир киши 1898 йилда Қўқон шаҳрида очди. Айни йили Тўқмоқ шаҳрида яна бир жадид мактаби очилур. 1899 йилда Маннон Қори Тошкентда, Шамсиддин домла Андижонда жадид мактаби очинади. Мунаввар қори 1900 йилда Тошкентнинг Миробод маҳалласида, Ҳожи Муин ва Абдулқодир Шекурий бейлар 1903 йилда Самарқандда жадид мактаби очарлар».

Шунингдек, муаллиф Туркистонда жадид мактабларини очиб жараёни 1908 йилда ташкил этилган «Ширкати Бухорои Шариф» тижорат ширкати туфайли анча жонлангани ҳақида ёзиб, ширкатнинг дарс китоблари ва бошқа ўқув воситалари учун маблағ ажратганига алоҳида тўхталади.

Профессор Бегали Қосимовнинг «Миллий уйғониш – жасорат, маърифат, фидоийлик» номли китобида шундай ёзилади: «А.В.Пасковский Тошкентда биринчи ўзбек жадид мактаби 1904-1905 йилда Мунавварқори томонидан очилган, унганча бўлганлари асосан татар мактаблари эди деб ҳисоблайди. Бу маълумотлар шартли, албатта. Негаки улар расман руҳсатно-

ма олинган мактабларинигина кўзда тутлади». Темуր Хўжаўғли Мунавварқори Тошкентда жадид мактабини 1900 йилда очганини Иброҳим Ёркиннинг «Туркистонда янги усул таълимнинг асосчиси ва миллатчи раҳбар Мунавварқори» номли мақоласига иқтибосан келтиради. А.В.Пасковский А.Добросмысловнинг «Ташкент в прошлом и настоящем» китобига суяниб, «татар мактаблари эди» деган фикрни айтгани учун ҳам профессор Бегали Қосимов маълумотларни шартли дейди. Демак, шу фактга асосланиб, ҳулоса чиқарсак, Мунавварқори жадид мактабини 1900 йилда очгани ҳақиқатга яқинроқ бўлади, бизнингча.

«Хур Туркистон учун» газетасининг бир неча сонларида Туркистондаги жадидчилик ҳаракатида бағишланган мақолалар таҳлиидан бизда айрим ҳулосалар пайдо бўлди: муҳожириклада юрган ижодкор ватандошларимиз бу мавзуга чуқур ёндашгани билан Туркистон бирлиги йўлида курашга чорлашни, миллий уйғониш йўлида курашган ойдинларимизни, зулм ва истибод занжирига боғланган Туркистонни дунёга танитишни, Ватандан айро тушган муҳожирларнинг Туркистон миллий мустақиллиги ғоясини тарғиб этишни, жадидлар тимсоллида эса миллий фикрни уйғотишни мақсад қилганлар.

Газетадан озод Туркистон йўлида битилган ўгли сатрларни ўқиб эканмиз, муҳожириклада яшаган хур фикрли ватандошларни мустабил тузум, маккор сиёсат нима учун ёмонотликка чиқаргани, тухмад ва ҳақоратлар билан бадном қилганини англагандек бўламиз.

Алижон САФАРОВ, ЎзЖОКУ кафедра мудир, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент


## «ИЛК ЖАДИД МАКТАБИ 40 КУН ЎТИВ, АМИР ТАРАФИДАН ЁПИЛАДИ. МАКТАБИНИ ОЧГАН ЎҚИТУВЧИ КИМЛИГИ ҲАҚИДА ЭСА ҲЕЧ БИР МАЪЛУМОТ ЙЎҚ.»

Профессор Иброҳим Ёркиннинг мақоласида Махмудхўжа Бехбудий портретига чизилган аке этади: «Туркистонда жадидчилик даври адабиётида Махмудхўжа Бехбудийнинг роли буюқдир. Туркистонда илк драма асари

сафарбар этишда «маориф – матбуот – жамият» тамойили асосида фаолият олиб борганини англаймиз. Иброҳим Ёркин мақола сўнгиди 1935 йилдан сўнг Бехбудий ҳақида гапириш тақиқлангани, Туркистон жа-

### ✓ Шеърят султони

## Яна ҳайратлар оламига сайр



сл шеърят, гўё муаттар ва ёқимли ифори хис этиш, ундан завқланиш, гўзалликнинг зуҳурланишини қалб кўзи билан идрок этиш қабилдир. Шу маънода бугунгача олим фозиллар томонидан таҳлил этиб келинаётган Навоий ижодини асл шеърятнинг марвариди дейиш мумкин. Бежиз атоқли шоиримиз Мақсуд Шайхзода «Навоий ҳақиқатини ҳам ўзбек адабий тилининг ва ўзбек адабиётининг мухтакам пойдеворини қўйган, дохий-адиб хусусиятларини ўзида жамлаб олган бир сиймо эди. Форс-тожик мумтоз адабиётда бир гуруҳ улуг шоирлар бажариб кетган вазифани тарих деярли яқса Навоий зиммасига юклади. У бу юкни шараф билан кўтариб, манзилгача етказган мутафаккир эди», – деб ёзмаган.

Навоий мабодо бошқа асар ёзмадасан фақат «Хазойин ул-маоний»ни ёки унинг таркибидаги битта девон - «Ғаройиб ус-сигар» ёхуд «Наводир уш-шабоб», «Фавойид ул-қибарни яратганда ҳам адабиётимиз тарихида энг улуг шоирларимиздан бири бўлиб қолар эди. Дарҳақиқат, Навоийдек ғазал, мухаммас, мусамман, таркибанд, қасида, китба, муаммо, туюқ, мусътазод, мусаддас, таржибанд, маснавий, соқийнома, рубоий, луғз, фард каби йиғирмага яқин жанрларда ижод қилган муаллифини топиш қийин. Шоир асарлари тадқиқи билан шуғулланган навоийшуносларнинг мақсад-вазифаси эса Навоий тафаккури ҳосиласи бўлмиш тилсимотни кашф этишдир. Биргина «Ҳайрат ул-аббор» достони – ҳайрат ичра йўғрилган уммон, унинг хар бир байти бир асар. Достоннинг ҳукми бепоён, жавоҳирлар маскани мисол. Жумладан, достоннинг XIV бобиди: «Сўз таърифидаким, башар вужуди сипехрининг кавкаби жаҳонтоби ва инсон зоти маъданининг жавҳари сероби дурур...» деб ёзади. Навоий шеърятини поэтик қурилиши жиҳатидан бутун бир қолига бўйсундирилган сўзлар силсиласидан ташкил топган ва бадийи стилистик жиҳатдан нутқий мутаносиблиги, оҳангдорлиги, жозибадорлиги, нозиклиги, фикрий уйғунлиги, маънавий бутунлиги, шунингдек, сир-жумбоқлиги билан ҳам ўқувчини ҳайратлар оламига бошлайди. Хусусан, Навоийнинг «Эй сабо...» ғазали бунга ёркин мисол бўла олади. «Эй сабо...» ғазалида бир қарашда ошқиннинг дил изҳорига оид туйғулар аке этаётгандай кўринса-да, аслида объект воеликка бўлган

эстетик муносабат ифодаси бош ўринда турганлигини пайқаш қийин эмас. Ошқ сабога мурожаат қилади: *Эй сабо, ҳолим бориб сарви хиромонимга айт, Йиғларимнинг шиддатини гулбарги хандонимга айт.* Сабодан қутилаётган илтифот битта: ошқиннинг ҳолатини, чекаётган изтиробларини машуқка етказиш. Аммо машуқка оддийлар қаторида турмайди. Унинг биринчи белгиси – «сарви хиромон»лигида. Ошқиннинг «холи» унинг «йиғларимнинг шиддати» ифодасида очик кўрсатилган. Машуқка – «гулбарги хандон» сифатида буни англаса, ошқ кўнгли тасалли топади. Ёркин эзгу хислатлар билан ёдга олиниши тасодифий эмас. Бунинг реал асослари бор. Энг муҳими, дастлаб ёркин ўзи ҳам ошқка беларво ва локайд муносабатда бўлган эмас, балки ахду паймон қилишга имкон яратган. Фақат бугун бу ахдан қайтган ҳолда намоен бўлмоқда. Шунинг учун ҳам ёр «бад ахду паймон» сифатида «мушарраф» бўлган. *Буки анинг ахд-у паймониди ўлсам даги Яхши фурсат топсанг,* *ул бад ахд-у паймонимга айт.* Мазкур ғазалдаги ошқ мумтоз адабиётимиздаги бошқа ошқлар билан бир нуқтада ҳамфикр ва ўхшаш: у ўз ёридан ёркин ўзи-у гўзалликда тенгсиз, қиёссиз: *Буки юз минг фитна кўзинг пайдо онсизин,* *Қилмагим наззора ҳаргиз кўзи фаттонимга айт.* Ниҳоят, ошқ кўнгли ёркин таърифини яна бир поғонага кўтаради. Энди у «шохи суҳандон» сифатида таърифланади. Биринчи маротаба шу ўринда

ошқ ҳам ўзининг асл қиёфасини ошқор этишга жазм этади, ўзининг «хушнавоб булбул» эканлигини билдириб ўтишни лозим топади. *Эй Навоий, ҳеч гулишнинг сенингдек хуснор Булбули йўқ эркин шох суҳандонимга айт.* Ушбу ғазалда қўлланган сўзлар ошқ ва машуқка ҳолатининг ўзига ҳослиги ва даражасини баҳолашнинг мезони бўлиб хизмат қилган. Бу ерда машуқанинг ошқ учун нақадар азиз ва кадрли эканлиги образли тарзда аке этган. Навоий ижодидан бундай гўзал ғазалларга яна қўйлаб мисоллар келтириш мумкин. Гарчи, Алишер Навоийнинг ғазаллари маъноларини англаш оддий ўқувчи учун мушкул бўлса ҳам, даҳо шоирнинг халқимиз орисида машхур бўлиб кетган пурмаъно сўзлари бехисоб. Хусусан, шоирнинг «Бордир инсон зотида онча шараф, Лим ямон ахлоқин этса бартараф», «Сарви гул-у лола харидори бор, Лек ўтининг доғи бозори бор», «Чунки тама бўлди гадолар иши, Билки гадолир тама этган киши», «Бўламаса ишқ, икки жаҳон бўлмасин, Икки жаҳон демаки, жон бўлмасин», «Хушдур боғи қонот гули, Барчадин яхшироқ хаёт гули», «Ҳақ йўлида ким сента бир харф ўқитмиш ранж ила, Айламак бўлмас адо анинг ҳақин юз ганж ила», «Билмагани сўраб ўрганган олим, Орланиб сўрамаган ўзига золим», «Оз-оз ўрганиб доно бўлур, Катра-катра йиғилиб дарё бўлур» каби хикматлари қон-қонимизга сингиб кетган...

Мухаммадамин АХУНОВ, АндМИ доценти, партия фаоли

